



1913-yil aprel oyidan chiqqan boshlagan

Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2023-yil 27-iyun, seshanba,
76-77 (23.797-23.798)-son

**KUN
HIKMATI**

Gazeta o'qimagan,
televizor ko'rmagan
odamni ayblamaslik
mumkin. Ammo
kitob mutolaa
qilmaganni kechirib
bo'lmaydi

Shavkat Mirziyoyev: **TURIZM EKSPORTINI UCH-TO'RT BAROBAR OSHIRSAK, JAYDARI QILIB AYTGANDA, "PAXTA EKMASAK" HAM BO'LAVERADI**

Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod Shavkat Mirziyoyev 26-iyun kuni samarqandlik saylovchilar bilan uchrashdi.

Uchrashuvni nomzodning ishonchli vakili Rustam Xolmurodov ochdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod Shavkat Mirziyoyev o'zining saylovoldi dasturi yuzasidan ma'ruza qildi.

Nomzod samarqandlik saylovchilar bilan uchrashuv chog'ida kelgusi yetti yilda O'zbekistonda turizmni rivojlantirishga oid rejalarga alohida to'xtaldi.

– Turizm sohasida yaratilgan bitta yangi ish o'rni, boshqa sohalarda yana ikkita ish o'rni paydo bo'lishiga turtki beradi. Ochiq aytadigan bo'lsak, jazirama issiq va izg'irin sovuqda, hammani paxtaga majburiy safarbar etgan yillarda ham O'zbekiston paxta tolasining eksporti 1 milliard dollardan oshmagan. Hozirgi kunda turizm eksporti bu marradan oshib o'tdi. Agar uni uch-to'rt barobar oshirsak, jaydari qilib aytganda, "paxta ekmasak" ham bo'laveradi, – dedi nomzod.

Shunga ko'ra:
– barcha xalqaro aeroportlarda xorijiy turistlarga O'zbekistonda sotib olgan mahsulot uchun qo'shilgan qiymat solig'ini qaytarib berish yo'lga qo'yiladi;

– xorijdan turist olib kelgan tur-operatorlarga eksportchi korxonalar kabi qo'shilgan qiymat solig'ini to'liq qaytarib beriladi;

– tur-operatorlar transportiga shahardagi turistik marshrut va obyektlarga borish uchun qulay harakatlanish sharoitlari ta'minlanadi;

– chet eldan olib kelingan turistik transport vositalari uchun qo'shilgan qiymat solig'ini uch yil ichida foizsiz va bo'lib-bo'lib to'lashga ruxsat beriladi.

Prezidentlikka nomzod uchrashuvda ichki turizmni rag'batlantirishga alohida e'tibor qaratilishini ma'lum qildi.

– 2030-yilga borib, kamida 25 million aholimiz mamlakatimiz bo'yab sayohat qilishi uchun barcha imkoniyatlar ishga solinadi. Nogironligi bor shaxslar uchun "To'siqsiz turizm" dasturi ishlab chiqilishi ma'lum qilindi.

Avtomobil, havo va temir yo'l transporti tarmog'ini yanada kengaytirish rejalashtirilayotgani qayd etildi.

Uchrashuvda kelgusi yetti yilda respublika ahamiyatidagi yo'llarni qurish va ta'mirlashga jami 5,3 milliard dollar yo'naltirilishi rejalashtirilayotgani ma'lum qilindi.

Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki hamda Jahon banki ko'magida "Toshkent – Samarqand" va "Toshkent – Andijon" yo'nalishlarida xususiy sheriklik asosida yangi tezyurav avtomobil yo'llari quriladi.

Uchrashuvda Shavkat Mirziyoyev Samarqand viloyatini kelgusi yetti yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholi turmush darajasini oshirishga

qaratilgan beshta strategik maqsadni bayon qildi.

Jumladan, 110 mingta yangi o'quvchi o'rni yaratish maqsadida 21 ta yangi maktab va 347 ta maktab uchun qo'shimcha bino quriladi, 210 ta maktab kapital ta'mirlanadi. 2030-yilga qadar birorta mahallada bog'cha muammosi qolmaydi. Buning uchun 76 ta mahallada ilk bor bog'cha faoliyati yo'lga qo'yiladi, qo'shimcha 255 ta bog'cha tashkil qilinadi.

Samarqand tibbiy xizmat xabiga aylantiriladi, ilm-fan va texnologiya markazi bo'ladi. Shaharda 20 ming o'rinni Yoshlar shaharchasi tashkil etiladi.

Kelgusi yetti yilda viloyatda 100 ming kvartirali 2 ming 300 ta zamonaviy va hamyonbop uy-joy quriladi. Jumladan, Samarqand shahri va barcha tumanlarda "Yangi O'zbekiston" massivlari barpo etiladi.

22 milliard dollarlik 10 mingta loyiha amalga oshiriladi. Har bir tuman va shaharda sanoat parklari tashkil qilinadi. 2030-yilga borib viloyatda 200 trillion so'mlik yalpi ichki mahsulot ishlab chiqariladi.

5 ming 300 kilometr ichki yo'llar va 160 ta ko'priklar ta'mirlanadi, 5 ming 700 kilometr elektr tarmoqlari, 2 mingta transformator yangilanadi. Shuningdek, 7 ming kilometr ichimlik va oqova suv tarmoqlari quriladi, 180 ta mahallada (1,2 million aholi) ichimlik suvi ta'minoti yaxshilanadi. Natijada 2030-yilga borib, viloyat aholisining toza ichimlik suvi bilan ta'minlanish darajasi hozirga 71 foizdan 96 foizga yetkaziladi.

Viloyatda 3 ta quyosh va bitta elektr stansiyasi quriladi.

Buyuk ajdodlarimiz nomini abadiylashtirish maqsadida Registon bunyodkori bo'lgan Bahodir Yanglangto'sh xiyoboni tashkil etiladi.

Shavkat Mirziyoyev Samarqand shahrini aholi va sayyohlar uchun qulay bo'lgan "bir millionlik shahar"ga aylantirish borasidagi rejalari haqida ham ma'lum qildi.

– Buning uchun Samarqand, Past Darg'om, Oqdaryo va Toyloq tumanlari hududidan 18 ming gektar yer maydoni shahar tarkibiga o'tkaziladi. Viloyatning ma'muriy markazi shaharning tarixiy markazidan boshqa hududga ko'chiriladi. Shaharda jamoat transporti tizimi to'liq modernizatsiya qilinadi.

Bu maqsadlar uchun 40 ta yangi avtobus yo'nalishi, ayeroport, temir yo'l vokzali va tarixiy markazlarni bog'laydigan 5 ta ekspress avtobus yo'nalishi tashkil qilinadi, – dedi nomzod.

Uchrashuvda so'zga chiqqanlar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovida Shavkat Mirziyoyev nomzodini qo'llab-quvvatlashini ta'kidladi va boshqalarni ham shunga da'vat etdi.

O'ZA.



www.zarnews.uz <https://www.facebook.com/zarnews.uz> https://twitter.com/zarnews_uz

**2023
9-IYUL** O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
PREZIDENTI SAYLOVI

Gazetamizning bugungi sonida O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzodlarning saylovoldi tashviqoti bo'yicha maqolalar chop etilmoqda.

Mazkur maqolalar O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzodlarga saylovoldi tashviqoti uchun ajratilgan bepul nashr maydoni doirasida e'lon qilinmoqda.

4-5-betlarga qarang.



OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI – JAMIYAT KO'ZGUSI

Samarqand shahrida Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni munosabati bilan tadbir tashkil etildi. Unda viloyatimizdagi tahririyatlarda mehnat qilayotgan faol ijodiy va texnik xodimlar, nashriyotlar vakillari, hokimlik va tashkilotlarning axborot xizmati xodimlari ishtirok etdi.

Viloyat hokimi Erkinjon Turdimov matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlarini bayram bilan qutladi.

– Bir paytlar Samarqandda sodir bo'lgan voqeadan shu hudud aholisi bexabar qolgan, – dedi E.Turdimov. – Bugun esa odamlar har qanday voqea-hodisa, amalga oshirilayotgan islohotlar haqida mam-lakatimizning chekka qishlog'ida

yashaydimi, xorijiy davlatda bo'ladimi, darrov xabar topyap-ti. Bu esa ochiqlik, oshkoralik, so'z erkinligiga qaratilayotgan e'tibor samarasidir. Bugun har qanday rahbari sergak torttirishda ham jurnalistlarning o'rni alohida. Nafaqat rasmiy ommaviy axborot vositalari xodimlari, balki xolis fikri bilan ijtimoiy tarmoqlarda qatnashib yurgan fidoyilar, blogerlar ham jamiyat

rivoji yo'lida faol ekanligi quvonarli, albatta.

Ta'kidlash lozimki, bugungi kunda viloyatda bir tele va bir radiokanal faoliyat olib boradi. 36 ta gazeta-jurnal chop etilayotgan bo'lib, ular 3 ta viloyat, 16 ta shahar va tumanlar gazetatalari, 7 ta xususiy nashr, 4 ta tarmoq gazetasi, 5 ta ilmiy va bir adabiy-badiiy jurnaldir.

Voqea-hodisalarni tezkor ravishda, onlayn rejimida yoritishga alohida e'tibor berilmoqda. Natijada 10 ta internet nashri ommaviy axborot vositasi sifatida davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.

Shuningdek, 6 ta xususiy nashriyot faoliyat ko'rsatayotgan

bo'lsa, keyingi bir yil davomida ular tomonidan 300 dan ortiq nomdagi kitoblar nashrdan chiqarildi. Bundan tashqari 95 ta matbaa korxonasi ishlab turibdi. Keyingi yillarda hokimliklar va davlat tashkilotlari axborot xizmati xodimlari bilan yaqin hamkorlik o'rnatilib, turli loyihalarga amalga oshirilmoqda.

Tadbirida "Samarqandning eng faol jurnalisti" tanlovi g'oliblari taqdirlandi. Shuningdek, bir guruh ommaviy axborot vositalari xodimlariga viloyat hokimligining tashakkurnomalari topshirildi.

**To'liq SIDDIQOV,
Alisher ISROILOV (surat).**

Samarqandning eng faol jurnalistlari aniqlandi

O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi viloyat bo'limi boshqaruv hay'atining yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Yig'ilishda 27-iyun – Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni munosabati bilan viloyat hokimligi va O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi viloyat bo'limi hamkorligida o'tkazilgan "Samarqandning eng faol jurnalisti" tanlovi yakunlari ko'rib chiqildi.

Unga ko'ra, quyidagilar tanlov g'oliblari deb topildi:

BOSMA NASHRLAR YO'NALISHIDA

To'liqin Siddiqov – viloyat "Zarafshon" gazetasini muxbiri;

Dilafro'z Oblaqulova – viloyat "Ovozi Samarqand" gazetasini muxbiri;

Tohir Hamidov – Kattaqo'rg'on shahar "Kattaqo'rg'on tongi" gazetasini muharriri;

Dilrabo Kamolova – Toyloq tumani "Qo'shchinor" gazetasini muxbiri.

INTERNET JURNALISTIKA YO'NALISHIDA

Shuhrat Shokirjonov – kun.uz veb-sayti muharriri, Samarqand viloyati bo'yicha maxsus muxbiri.

TELEVIDENIYA YO'NALISHIDA

Abdurasul Ashurov – viloyat teleradiokompaniyasi televideniya guruhi o'z muxbiri.

RADIO YO'NALISHIDA

Zilola Pirnazarova – viloyat teleradiokompaniyasi radio guruhi birinchi toifali muxbiri.

AXBOROT XIZMATI YO'NALISHI

Mansur Hasanov – viloyat adliya boshqarmasi axborot xizmati rahbari.

Davlatimiz rahbari qaroriga ko'ra, 28-iyun kuni yurtimizda Qurban hayiti bayram sifatida keng nishonlanadi. Shu munosabat bilan O'zbekiston musulmonlari idorasi ko'rsatmasiga asosan, jome masjidlarida hayit namozi ibodatlarini ado etiladi. Jumladan, viloyatimizdagi 282 ta masjidida hayit namozi o'qilishi rejalashtirilib, ularda namozxonlar uchun zarur shart-sharoit yaratilgan.



Qurban hayiti muborak bo'lsin!

Yaratganga beaded shukrlarki, ezgu amallar, fazilatlilar bilan Qurban hayitini nishonlayapmiz. Bayram oldidan imom-xatiblar, saxovatpesha kishilar tomonidan mahallalardagi ehtiyojmand oilalar, yolg'iz keksalar, nogironligi bo'lgan shaxslar va bemorlar holidan xabar olinib, ularga muruvvat yordamlari ko'rsatilmoqda. Bu xayrli yumushlar hayit kunlari ham davom etadi.

Imomi A'zam mazhabiga ko'ra, qurbanlik kuni hur, muqim, boy musulmon odamga qurbanlik qilish vojibdir. Qurbanlik qilish zakot va fitr sadaqasi kabi moliyaviy ibodat bo'lib, u Qur'oni karim, hadisi sharif va ijmo' bilan sobit bo'lgan.

Qurbanlikning vojibligiga dalillar: "Bas, Rabbinga namoz o'qi va jonliq so'yib qurbanlik qil!" (Kavsar surasi, 2).

Allohning O'zi uchun ibodat qilish, namoz o'qish, faqat Uning yo'lida jonliq so'yib, beva-bechoralarni to'yg'azish shukrning bir ko'rinishidir.

Ulamolarimiz ushbu oyati kari-madagi "namoz"dan murod, iydi qurban namozi, "jonliq"dan murod qurbanlikka so'yiladigan hayvon, deganlar.

Avval xabar qilganimizdek, ushbu ulug' kunlarda viloyatimizdan 912 nafar ziyoratchi muborak Haj amallarini ado etmoqda. Duolar ijobat bo'ladi qutlug' ayyom kunlarida Yaratgandan yurtimizga tinchlik, xalqimizga farovonlik so'raymiz.

Qurban hayiti barchamizga muborak bo'lsin, azizlar!

**Yoqubjon MANSUROV,
O'zbekiston musulmonlari idorasi viloyat vakili o'rinbosari.**

Ijtimoiy himoya manzilli, maqsadli bo'lsa

jamiyatda faollik, ishonch va barqarorlik kuchayadi

Joriy yilning 1-iyun kuni davlatimiz rahbarining "Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni imzolandi. Farmonda belgilangan chora-tadbirlarni hayotga o'z vaqtida va tizimli tatbiq etish hamda aholiga kompleks yondashuv asosida professional ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish tizimini joriy qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Ijtimoiy himoya milliy agentligi tashkil etildi. Ushbu agentlik faoliyati, kelgusi rejalar haqida viloyat kambag'allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasining tibbiy-ijtimoiy xizmatlar bo'limi boshlig'i Ilhom Vahobov bilan suhbatlashdik.

- Ilhom aka, yangi tashkil etilgan agentlikning faoliyatidan nimalar kutilyapti?

- Ehtiyojmand oilalarni qiyin vaziyatdan chiqarish bo'yicha keyingi yillarda o'ziga xos tajriba to'plandi, shu kungacha qanchadan-qancha oilalar manzilli yordam bilan daromad manbaiga ega bo'ldi. Davlat tomonidan aholiga kafolatlangan ijtimoiy himoya dasturlari 170 dan ortiq xizmat va yordamlarni qamrab olgan. Ammo bugungacha ushbu xizmatlar 6 ta vazirlik tomonidan bir-biridan tarqoq tarzda faoliyat olib borardi. Bu ehtiyojmand qatlamga ko'rsatilayotgan ijtimoiy ko'mak sifatini nazorat qilishda qiyinchiliklarni tug'dirardi. Ma'lumki, ijtimoiy xizmatlarning asosiy qismi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining faoliyat yo'nalishiga kiritilgan edi. Endilikda mazkur farmon bilan bir qator ijtimoiy yordamlar bosqichma-bosqich, 2025-yilning 1-yanvariga qadar Ijtimoiy himoya milliy agentligiga o'tkaziladi.

Xususan, aholining ijtimoiy himoyasi va moslashuviga bevosita daxldor bo'lgan tibbiy-ijtimoiy ekspertiza inspeksiyasi va uning hududiy bo'linmalari, nogironligi bo'lgan shaxslarni reabilitatsiya qilish va protezlash milliy markazi hamda uning hududiy markazlari, ayollarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish respublika markazi va uning hududiy bo'limlari agentlik tasarrufiga o'tkazilib, yagona tizim orqali boshqariladi.

- Qarorda agentlikning hududlarda "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlarini tashkil etish ham nazarda tutilgan.

- "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlarida ijtimoiy guruhlarni tashkil etilib, ularda psixolog, ijtimoiy yuristlar va bir nechta yo'nalishlarda mutaxassislar faoliyat olib boradi. Mahalla va xonadonlarda uyma-uy yurib, ijtimoiy ko'mak muhtoj bo'lganlar xatlovdan o'tkaziladi. Har bir xonadonga kirilganida uning barcha muammolari o'rganiladi va oilalarning ijtimoiy pasportlari shakllantiriladi. Masalan, bir fuqaroga nogironlikni belgilash borasida yordam kerak bo'lsa, uning davolanishi masalasi ham bir paytning o'zida ko'rib chiqiladi. Bosqichma-bosqich



yordam ko'rsatish ishchi guruhi tomonidan nazorat qilinadi va oxirida yakuniy masala ham o'rganilib, ularni nazorat guruhi-dan chiqarish masalasi ko'riladi. Agentlikning asosiy vazifalaridan biri o'g'ir ijtimoiy holatga tushgan va tushish xavfi bo'lgan aholi bilan manzilli ishlashni tashkil qilishdan iborat bo'lib, aholining 31 ta toifasiga individual yondashuv muvofiq ijtimoiy xizmatlarni mahalla darajasida tashkil etadi.

- "Ijtimoiy himoya yagona reestri" axborot tizimi agentlik tasarrufiga o'tkazilishi qanchalik samara beradi?

- 15-avgustgacha aholini ijtimoiy xizmatlar va ijtimoiy yordam ko'rsatish dasturlari bo'yicha, shu jumladan, ularning mobil aloqa vositalariga ma'lumot yuborish orqali xabardor qilish amaliyoti joriy etiladi. Oktabr oyigacha "Yagona milliy ijtimoiy himoya" axborot tizimi ishga tushiriladi. "Ijtimoiy himoya yagona reestri" axborot tizimi agentlik tasarrufiga o'tkazilib, aholiga ko'rsatiladigan barcha turdagi ijtimoiy xizmatlar, yordamlar, shu jumladan, kam ta'minlangan oilalar bolalari uchun nafaqa va moddiy yordamlar bo'yicha arizalar "Yagona milliy ijtimoiy himoya" axborot tizimi orqali qabul qilinadi. Yil oxiriga qadar davlat tomonidan kafolatlangan ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatish standartlarini hamda ularning ijrosini monitoring qilish mezonlari, nogironligi bo'lgan shaxslarni uyda parvarishlash bilan band bo'lgan oila a'zolariga ko'maklashish bo'yicha ijtimoiy himoya mexanizmlari ishlab chiqiladi.

Yuqoridagi farmon bilan ijtimoiy yordamlar aholiga manzilli tartibda

ko'rsatiladigan bo'ladi. Ya'ni, bu xizmatlar uylargacha kirib boradi. Avvalgidek, ehtiyojmand fuqarolar davlat idoralarga borib yurishi shart bo'lmaydi. Hujjatlar elektron platformada yuritiladi. Shu maqsadda turli tashkilotlardagi tuzilmalar, jumladan, "Mehr daftari", "Saxovat va ko'mak", "Yoshlar daftari" va "Ayollar daftari" orqali ko'rsatiladigan ijtimoiy yordam va ko'maklar yagona tizimga qamrab olinyapti. Shuningdek, Sog'liqni saqlash vazirligi tizimidan bolalar uylari, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tizimidan mehribonlik uylari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari tizimidan voyaga yetmaganlar bilan ishlash sektorlari hamda oilaviy bolalar uylari ham agentlik tasarrufiga o'tkaziladi.

- Ijtimoiy himoya jamiyatda boqimandalik kayfiyatini oshiradi, degan qarashlar ham bor...

- Albatta, bunday fikrlar ham uchrab turadi. Ammo rivojlangan davlatlar tajribasida bu aksincha ekanini isbotlangan. Ya'ni, ijtimoiy himoya manzilli, maqsadli bo'lsa, jamiyatda faollik, ishonch va barqarorlik kuchayadi. Muhimi, ijtimoiy muhofazaga muhtoj fuqarolarga ko'rsatilayotgan tibbiy-ijtimoiy, maishiy xizmatlar turlari va sifatini oshirish, muhtoj fuqarolarning jamiyatda o'z o'rnini topishi, to'sqinlik harakatlanishi va belgilab berilgan imtiyozlardan to'liq foydalanishi yo'lga qo'yiladi. Bu bilan tizim tasarrufiga tibbiy-ijtimoiy muassasalar, xususan, Saxovat, Muruvvat uylari, sanatoriylar, reabilitatsiya markazlari, bolalar uylari, maxsus maktab va internatlar, ixtisoslashtirilgan kasb-hunar markazlarining moddiy-texnik bazasi yaxshilanib, u yerda yashayotgan, davolanayotgan, kasb-hunar o'rganayotganlariga yanada qulay shart-sharoitlar yaratiladi. Bundan tashqari, nogironlar aravachasi, eshittish moslamasi, hassa, qo'ltiqayoq kabi protez-ortopediya mahsulotlari, reabilitatsiya texnik vositalariga muhtoj fuqarolarni sifatli vositalar bilan o'z vaqtida ta'minlab berish orqali ularning jamiyatga moslashuvi tezlashadi. E'tiborlisi, agentlik uchun kamida 10 foiz xodimlar nogironligi bo'lgan shaxslar orasidan tanlov asosida ishga olinadi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada ijtimoiy davlat tamoyiliga alohida urg'u berilgan. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, yangi tashkil etilgan agentlik aholini ijtimoiy himoya qilish va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasidagi yagona davlat siyosatini amalga oshiruvchi vakolatli davlat organi-ga aylanadi.

Sulaymon MARDIYEV suhbatlashdi.

Ma'lumotlarga ko'ra, 2018-yilda viloyatimizda 1 million 800 ming dollarlik ipak mahsulotlari eksport qilingan bo'lsa, 2022-yilda bu ko'rsatkich 20 million dollarga yetgan. 2018-2022-yillarda viloyatda pilla yetishtirish hajmi 1,2 ming tonnaga, aholi bandlegi esa 81,4 ming nafarga hamda eksport hajmi 17,2 million dollarga oshgan.

Osiyo bozorida o'zbek ipagi yangi brend yaratadi(mi?)

Past Darg'om tumani pillakorlari joriy yil birinchi mavsumda 305 tonna pilla xomashyosi tayyorlashni rejalashtirishgandi va ko'zlangan maqsadga erishildi. Endi asosiy e'tibor yetishtirilgan xomashyoni qayta ishlash, eksport salohiyatini oshirishga qaratilgan. Bu borada tumandagi "Elbek TRJ" pillachilik klasterida zamonaviy texnologiyalar orqali xomashyoni sifatli qayta ishlash yo'lga qo'yilgan.

- 2015-yilda Xitoydan zamonaviy uskunalar keltirilib, pilla xomashyosidan ipak momig'i tayyorlash yo'lga qo'yilgandi, - deydi korxonada direktori Oybek Isanov. - Prezidentimizning 2019-yil 31-iyuldagi "Pillachilik tarmog'ida chuqur qayta ishlashni rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori bilan pillachilik klaster korxonalariga bir qator yangiliklar berildi. Mahsulot eksportida tashish xarajatlarining 50 foizi davlat budgeti mablag'lari-dan kompensatsiya qilinadigan bo'ldi. Pillachilik klasterlari uchun tut nihollari va ko'chatlari yetishtirish, ipak qurtini ko'paytirish, ipak

talarini tayyorlash va yigirish kabi bir qancha faoliyat turlarini kengaytirish imkoniyati yaratildi. Shu bilan birga, korxonamizga Past Darg'om, Nurobod va Samarqand tumanlari birlashtirilib, shu tumanlarda yetishtirilgan pilla xomashyosini



qabul qilish va qayta ishlash vazifasi yuklatildi. 2018-yilda birgina Past Darg'om tumanida pilla xomashyosi yetishtirish yiliga 194,7 tonna, eksport hajmi 175 ming dollarni tashkil etardi va 3134 nafar aholi sohada band bo'lgan. Hozirda tumanda pilla yetishtirish hajmi 305 tonnadan ortdi.



2022-yildagi raqamlarga qaraganda bo'lsak, korxonamizga birlashtirilgan uchta tumandagi tutzorlar 1325,2 gektarga, pilla yetishtirish 620 tonnaga, eksport hajmi 1755,2 million dollarga va sohada band bo'lgan aholi qariyb 14 ming nafarga yetdi.

Hozirda 87 nafar fuqaro mehnati bilan yiliga 400 tonna pilla xomashyosini qayta ishlash quvvatiga ega korxonada keyingi yildan ishlab chiqarish hajmini qo'shimcha 15 foizga oshirish kutilmoqda. O'tgan yili korxonada Hindiston, Xitoy, Tojikiston, Eronga ipak momig'i eksport qilingan bo'lsa, bu yil korxonada mahsulotlari bilan ilk bor tanishgan vietnamlik tadbirkorlar ham qayta ishlangan tolani xarid qilish istagini bildirishgan. Joriy yilda korxonada Xitoy, Vietnam va hindistonlik ishbilamonlarga 2 million dollarlik mahsulot yetkazib bermoqchi.

O'ktam XUDOYBERDIYEV, Baxtiyor MUSTANOV (surat).

SHOVONALIK YOSHLAR DXX KUBOGI UCHUN BELLASHADI

Joriy yilning 8-aprel kuni viloyatda mahalla yoshlari o'rtasida futbol va mini futbol bo'yicha "O'zbekiston Respublikasi DXX kubogi" musobaqasiga start berilgan edi. Ushbu sport musobaqalarida viloyatdagi 1126 ta mahalladan 3378 ta jamoa shakllantirilib, 40 ming 536 nafar yosh qamrab olindi.



Mini futbol bo'yicha o'g'il bolalar o'rtasida o'tkazilgan bahslarda Toyloq tumani Tepa qishloq mahallasi jamoasi musobaqaning respublika bosqichiga yo'l oldi. Keyingi o'rinlar Paxtach tumani Gulobod mahallasi va Samarqand tumani Arabxona mahallasi jamoalariga nasib etdi.

Musobaqaning qizlar o'rtasidagi bellashuvlarida Jomboy tumani No'sh mahallasi jamoasi respublika bosqichida viloyatimiz sharafiga himoya qiladigan bo'ldi. Ikkinchi o'rinni Ishtixon tumani Toy tuyuq mahallasi, uchinchi o'rinni Past Darg'om tumani Go'zalkent mahallasi jamoalari qo'lga kiritdi.

Futbol bo'yicha o'tka-

zilgan bahslarda Bulung'ur tumani Kichik Kildon mahallasi jamoasi uchinchi o'ringa sazovor bo'ldi. Samarqand shahridagi "Dinamo" o'yin-gohida mazkur musobaqaning viloyat bosqichi g'olibligi uchun kechgan final uchrashuvida Payariq tumani Qumchuq mahallasi jamoasi va Qo'shrabot tumani Shovona mahallasi jamoasiga qarshi maydonga tushdi.

Yakunda Qo'shrabot tumanining Shovona mahallasi jamoasi 1:0 hisobida zafar quchib, "O'zbekiston Respublikasi DXX kubogi" musobaqasining finaliga yo'llanma oldi.

G'oliblarga tashkilotchilar tomonidan diplom, medal va esdalik sovg'alar topshirildi.

F. RO'ZIBOYEV

Urgut tumanidagi "LORD FRUITS" MCHJ va "Urgut yashil olmalari" fermer xo'jaligi tomonidan "daladan eksportga" tamoyili asosida fermerlar, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash va eksport qilish loyihasi ishga tushirilgan. Ushbu loyiha asosida 15 nafar fuqaro doimiy hamda 35 nafar fuqaro mavsumiy ish bilan ta'minlangan.

Daladan eksportga

- 2022-yil avgust oyida faoliyat boshlaganmiz, - deydi "LORD FRUITS" MCHJ t-jorat direktori Baxtiyor Bekboyev. - O'tgan yilning to'rt oyida korxonamiz va "Urgut yashil olmalari" fermer xo'jaligi tomonidan 220 ming dollarlik mahsulot eksport qilgan bo'lsak, joriy yilning 1-may sanasiga qadar Saudiya Arabistoni, AQSH, Meksika, Belarus, Moldaviya, Marokash, Xitoy, Birlashgan Arab Amirliklari, Turkiya, Hindiston, Ukraina, Rossiya davlatlariga 560 ming dollarlik mahsulot sotdik.



Joriy yilning 20-24-fevral kunlari Dubay shahrida o'tkazilgan "Gulfood 2023" butunjahon davlatlari oziq-ovqat mahsulotlari xalqaro ko'rgazmasida dunyoning 125 davlatidan besh mingdan ortiq kompaniya qatorida biz ham ishtirok etib, 20 dan ziyod davlat kompaniyalari bilan o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yish bo'yicha shartnomalar imzoladik. Xususan, ushbu ko'rgazmada qisqa muddatli 1 million 620 ming dollarlik va uzoq muddatli 3 milliard 200 million dollarlik oziq-ovqat mahsulotlarini import qiluvchi o'ndan ortiq kompaniyalar bilan kelishuvga erishdik.

Korxonada kelajakda eksport hajmini oshirish maqsadida xorijdan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qadoqlovchi uskunalar olib kelishni va ish o'rinlari sonini 150 tagacha yetkazishni rejalashtirmoqda.

F. FAXRIDDINOV.

Bolalar uchun aliment olish tartibi:

O'g'il-qizlarning huquqlarini qanday ta'minlash kerak?

Bolaga aliment to'lash tartibini ota-ona o'zaro kelishgan holda belgilashga haqli. Ushbu majburiyat ixtiyoriy ravishda bajarilmasa, ota (ona)dan sudning hal qiluv qaroriga yoki sud buyrug'iga asosan aliment undiriladi.

Ko'pincha so'rashadi, aliment to'lash asosan ota-onaning majburiyatiga kiradimi?

Yo'q, voyaga yetmagan bolalariga aliment to'lash va ularga ta'minot berishda ota-onaning majburiyat-lari teng.

Tartibga ko'ra, aliment sudga murojaat etilgan paytdan boshlab undiriladi. Agar ta'minot uchun mablag' olish choralari sudga murojaat qilingunga qadar ko'rilganligi, ammo aliment to'lashi shart bo'lgan shaxsning uni to'lashdan bosh tortganligi oqibatida aliment olinmaganligi sud tomonidan aniqlansa, o'tgan davr uchun aliment sudga murojaat etilgan paytdan boshlab uch yillik muddat doirasida undirib olinishi mumkin.

Ta'kidlash lozim, bolaga aliment u voyaga yetgun-ga qadar to'lanadi.

Lekin yana bir tomoni bor, ota-ona voyaga yetgan mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj bolalariga ta'minot berishi shart. Bunda ta'minot berish ota-onaning kelishuviga ko'ra amalga oshiriladi. Kelishuvga erishilmagan taqdirda nizo sud tartibida hal qilinadi.

Eng ko'p uchraydigan savol: aliment qancha miqdorida undiriladi?

Agar voyaga yetmagan bolalariga ta'minot berish haqida ota-ona o'rtasida kelishuv bo'lmasa, aliment sud tomonidan ota-onaning har oydagi ish haqi va (yoki) boshqa daromadining bir bola uchun — 1/4 qismi; ikki bola uchun — 1/3 qismi; uch va undan ortiq bola uchun — 1/2 qismi miqdorida undiriladi.

Voyaga yetgan bolaga alimentning miqdori sud tomonidan har oyda pul bilan to'lanadigan qat'iy sum-mada belgilanadi.

Agar aliment to'lovchi ishlamasa, aliment o'rtacha oylik ish haqi miqdori bo'yicha hisoblab chiqiladi.

Yana bir muhim qoida - voyaga yetmagan bolalar ta'minoti uchun alimentlar bola voyaga yetguniga qadar bo'lgan davr uchun, shu jumladan, ko'chmas yoki ko'char mulk yoxud boshqa qimmatli ashyoni berish yo'li bilan oldindan to'lanishi mumkin.

Aliment to'lovchining boshqa voyaga yetmagan bolalari bo'lib, undan aliment undirilganda, o'sha bolalar aliment olayotgan bolalarga nisbatan kamroq ta'minlanib qoladigan bo'lsa, shuningdek, qonunchilikda belgilangan boshqa bir qator hol-larda aliment miqdori sud tomonidan kamaytirili-shi mumkin.

Agar voyaga yetmagan bola davlat yoki nodav-lat muassasalarining to'liq ta'minotida bo'lsa, sud to'lanayotgan aliment miqdorini kamaytirish yoki uni aliment to'lashdan ozod qilishi mumkin.

SH. RAMAZONOV, viloyat sudining sudyasi.

"Yozmang!". Har safar shu so'zdan og'rinaman. Juda ko'p davrlarda turli kasb egalari bilan suhbatimiz jarayonida gap aylanib, soha kishilarining yutug'ini muammolariga borib taqaladi. O'z sohasini yaxshi tahlil qila oladigan insonlar bilan suhbatlashishning ham gashti o'zgacha aslida. Juda ko'p kuzatganman, ular o'z muammolarini ayta turib, hal etilishini istashlarini bildirishadi. Ammo... Ammo bu haqda ommaviy axborot vositalarida yoritish taklifiga keskin rad javobini berishadi. Qizig'i, hatto ba'zida ismini oshkor qilmaslik sharti bilan ham bu mavzuda yozmasligimni iltimos qilishadi. To'g'ri, ko'p hollarda bu "iltimos"lar ko'pam o'zini oqlamaydi, mazkur fikrlar mulohaza, taklif sifatida baribir nashr yuzini ko'radi. Afsuski, aniq fakti berilmagan maqolaga e'tibor yoki unda ko'tarilgan masalaga munosabat kutilganiday bo'lmaydi. Ularga shunchaki mulohaza sifatida yondashiladi.

Bu kabi holatlarga bir yo'li ikki emas, o'nlab marotaba duch kelganim uchun bugun so'z erkinligi deb bong urayotganimiz faqat jurnalistlarga tegishli emasligiga qayta-qayta amin bo'lav-eraman. Umuman, so'z erkinligi o'zi nima, u qachon paydo bo'lgan? Nega bizda mutaxassislar yoki bu sohadagi muammolarni ochiq gapirishdan hanuzgacha cho'chishadi?

**ERKINLIK - BU IKKI KARRA
IKKI TO'RT EKANLIGINI
AYTISH IMKONIYATIDIR**

Keling, avval so'z erkinligi nima, u qachon, qayerda shakllangan, degan savollarga javob izlasak. So'z erkinligi haqiqatni qaror toptirish, o'z-o'zini boshqarish, siyosiy tizimning moslashuvchanligini ta'minlash, shaxsning o'zini o'zi takomillashuviga erishuvi, insonning tabiiy huquqlari va ularni himoya qilish masalalari bilan chambarchas bog'liq. Tarixiy jihatdan u xabardorlikni ta'minlash hamda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatini asosligini qo'llash sifatida paydo bo'lgan. 1689-yilda Buyuk Britaniyada Konstitutsion akt sifatida qabul qilingan "Huquqlar to'g'risidagi bill" ("Aholining huquq va erkinligini ta'minlash hamda qirolikka merosxo'rlik tartibini belgilovchi akt") parlament a'zolariga qirolik va amaldorlarning ishlarini muhokama qilish uchun to'liq erkinlikni kafolatlatdi. Bularsiz uning ishi samarasiz bo'lishi rasman tan olindi. So'z erkinligining bu xususiyati bugungi kunda hatto avtoritar tizim hukm surgan davlatlarda ham qadrlanib, ular o'z barqarorligini ta'minlash, joylardagi asl vaziyatni bilish maqsadida "ozodlik orolchalari"ni (misol uchun, chekka hududlardagi ommaviy axborot vositalariga erkinlik berib qo'yiladi) qoldirdi. Bunday erkinlik haqiqatni qaror toptirishda muhim omil sifatida ko'rila boshlandi.

J.Mill yozganidek, fikrlarni bostirishning yomon jihati shundaki, butun insoniyat bu g'oyaga qarshi bo'lganlar uning tarafdorlaridan ko'prog'dir. Agar fikr to'g'ri bo'lsa, ular yolg'onni haqiqat bilan almashtirish imkoniyatidan mahrum, agar u yolg'on bo'lsa... ular yolg'on bilan bo'yalgan haqiqatning aniq ko'rinishi va tasvirini yo'qotadilar. To'liq so'z erkinligi haqiqatda da'volarni oqlashning zaruriy shartidir.

"Fikrlar va ularning erkin ifodasi insonning eng qimmatli huquqlaridan biridir; shuning uchun har bir fuqaro erkin so'zlashi, yozishi, chop etishi mumkin, faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda ushbu erkinlikni suiiste'mol qilish uchun javobgardir". ("Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasi", 11-modda.)

Jorj Oruellning 1948-yilda yozilgan "1984" asaridagi Uinston Smit ismli qahramon "Davlat 2+2=5 ni haqiqat deb e'lon qila oladimi?", degan savolga javob beradi. Agar hamma bu haqiqatga ishonsa, bu uni haqiqatga aylantiradimi? Smit shunday xulosa-



So'z erkinligi:

**SUKUTDAGI TOMOSHABINLAR
BILAN UNI ASRAB QO'LOLMAYMIZ**

ga keladi: Erkinlik – bu ikki karra ikki to'rt ekanligini aytish imkoniyatidir. Agar shunga ruxsat berilsa, qolgan shuning ortidan keladi.

J.Russo va u kabi ko'plab faylasuflar so'z erkinligi madaniyatini o'rgatish zarur, degan fikrda. Ularning fikriga ko'ra, haqiqatni aniqlash uchun munozara olib borish va muqobil nuqtai nazarlarga nisbatan bag'rikeng jamiyatda taraqqiyot va hamjihatlikni yo'lga qo'yishda yordam beradi.

To'g'ri, turli jamiyatlarda so'z erkinligiga nisbatan murosasiz qarashlar doim bo'lgan. Ba'zi mutafakkirlar so'z erkinligiga jamiyatni tayyorlash, bu madaniyatni shakllantirish muhim, deb hisoblashsa, ba'zilar har qanday cheklov so'z erkinligiga taqiz sifatida qabul qilinishi kerak, deb hisoblaydi.

Masalan, A.De Tokvilning fikriga ko'ra esa "mas'uliyatli fuqarolar" tarbiyasi sof ta'limdan tashqariga chiqadi va aslida senzuraning bir turi hisoblanadi. Chunki u shaxsiy e'tiqodlarni ijtimoiy axloqqa bog'liq qiladi. Bir qator zamonaviy tanqidchilar fikrlashning mustaqilligini yo'qotish ijtimoiy ongni manipulyatsiya qilish xavfini oshirishini ta'kidlaydi.

Shunga qaramay, demokratik mamlakatlar aholisining aksariyati (ayniqsa, konservatorlar) shaxsiyat borasida bunday aralashuvni yoki bu darajada asosli deb biladi.

**"HAQ SO'Z AYTAMAN,
DEB ISHDAN AYRILISHNI
HECH KIM ISTAMAYDI"**

- Xolis va ochiq so'z har bir jamiyatda o'z qadriga ega bo'lgan, - deydi O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist Sulaymon Husainov. - O'z qadri bilgan, jurnalistligini anglagan inson har qanday vaziyatda haq so'zni aytishga harakat qilishi kerak. Bu balandparvoz gap emas, jurnalistning nonidir. Hech esmidan chiqmaydi, bir gal obkom (hozirgi viloyat hokimligi) tomonidan tashkil etilgan ishchi guruh tarkibida bir kolxoz faoliyatini o'rganishga bordik. O'sha paytlar bu kabi o'rganishlar katta yig'ilish oldidan, albatta, negativ xarakterga ega bo'lishi kerak edi. Ya'ni, mazkur o'rganishlar natijalari yig'ilishda aytilib, o'sha muasasa rahbari ishdan bo'shatilishi kerak edi. Men bilan birga borgan guruh a'zolari zo'r berib, o'sha idora faoliyatidan qildan qiyiq izlaganday kamchilik izlashardi. Chunki kolxoz viloyatining eng oldi hududlardan bo'lib, ishi ijobiy jihatdan ko'zga ko'rinish qolgandir. Kolxoz raisi ham asl sababini bilgani uchun o'zini oqlamas, "o'zlarining bilasizlar", deganday, taftishga beparvo qarab o'tiradi (aniqlanishicha, u qaysidir amaldorning aytganini qilmagan).

Qaytganimizdan so'ng ishchi guruhning boshqa a'zolarining barchasi mayda-bushyda kamchiliklarni bo'rttirib hisobot tayyorlashdi. Men unday qilmadim. Hoki miyatdan qo'ng'iroq bo'ldi. - Nega siz topshiriqni bajarmadigiz?

- Men topshiriqni bajardim, u kolxoz faoliyatini obdon o'rgandim.

- Xo'sh'?! - Kolxozdagi barcha ishlar risoladagiday yo'lga qo'yilgan ekan, rais ishdan ketadigan darajadagi kamchiliklar yo'q u yerda. Mening yakuniy xulosam shu.

- Fikringiz qat'iyimi? - Albatta.

Shunday qilib, ushbu suhbatdan so'ng rostdan ham kelayotgan dushanba kuni yig'ilish bo'ldi va kolxoz raisi ishdan ketmadi! Bu voqeani qahramonlik qildim, degan ma'noda keltirayotganim yo'q. Jurnalistning adolati so'zidan hayiqish doim bo'lganligini bildirish uchun aytayman. Ya'ni, qanday jamiyat bo'lmasin, agar u yerda bilim, tafakkur, xolisligi bilan nom chiqargan jurnalist bo'lsa, uning so'zi har doim qadrlil bo'lgan. Hatto doim o'z aytganiday bo'lishni istovchi hukumat vakillariga ham.

Afsuski, haq so'zi bilan ozgina tanilgan jurnalistlar orasida uni suiiste'mol qilish holatlari ham ko'p.

So'z erkinligi jamiyatning barcha qatlamida bo'lishi juda yaxshi hodisa, albatta. Ammo bunga erishish yo'lidagi omillar juda ko'p. Haq so'zni aytaman, deb turli bosimlarga uchrash yoki oddiyroq qilib aytadigan bo'lsak, ishdan ayrilishni hech kim istamaydi. Ish topish uchun yillab harakat qiladigan yoki atrofta o'zini mutaxassisligi bo'yicha boshqa bironita ish topolmaydigan inson uchun erkin fikrni aytish rostdan ham oson emas. Ammo shunday ekan, deb qarab turmaslik kerak. Ayniqsa, bugun ijtimoiy tarmoqlardan istagan kishi axborot tarqatish imkoniga ega bo'lib turgan bir paytda asl haqiqatni yashirishning iloji yo'q.

- Har qanday jamiyatda toki jurnalist faoliyatiga to'sqinlik uchun jazo choralarini qo'llanilmas ekan, bu soha vakillari faoliyatiga cheklov bo'lavermadi, - deydi jurnalist Anvar Mustafoqulov. - Chunki aynan shu cheklovning o'zi so'z erkinligiga putur yetkazadi. Jurnalist soha vakili sifatida faoliyatiga nisbatan cheklovlar, adolatni aytgani uchun bo'ladigan ta'ziyqlar qaysidir ma'noda tayyor bo'ladi. Ammo maqola yoki lavha tayyorlashda, jurnalist surishtiruv olib borishda aholining, ekspertlarning ham fikri juda katta ahamiyatga ega. Shunday payti jurnalistlari qiynalib qolishi faoliyatimiz davomida ko'p uchraydi.

Rostdan ham shunday. Ehtimol, buning sabablari so'z erkinligiga nisbatan mamlakatimizda hukm surgan uzoq yillik sukut sababdir. Haq so'zni aytganlar taqdiri haqida tarqalgan turli gap-so'zlar va boshqa shu kabi holatlar bizdagi ichki senzuraning yo'qolmayotganiga sabab bo'layotgandir.

**ENG MUHIM MEZON –
ODAMLARNI TINGLAY BILISH**

Bugun dunyoda yoki mintaqalarda so'z erkinligi darajasini o'lchash bilan mashg'ul qator tashkilotlar faoliyat

yuritadi. Ular quyidagilar:

* Freedom of The Press – "Dunyoda matbuot erkinligi" reytingi "Ozodlik uyi" xalqaro nodavlat tashkiloti tomonidan e'lon qilinib, dunyo mamlakatlaridagi matbuot erkinligi holati to'g'risidagi tadqiqot va unga qo'shilgan reytingni amalga oshiradi.

* Worldwide Press Freedom Index – Jahon matbuot erkinligi indeksi: har yili o'tkaziladigan tadqiqot va unga hamroh bo'lgan dunyo mamlakatlaridagi matbuot erkinligi holati to'g'risidagi reyting "Chegarasiz muxbirlar" xalqaro nodavlat tashkiloti tomonidan e'lon qilinadi.

* Media Sustainability Index – Ommaviy axborot vositalarining barqarorligi indeksi: IREX tomonidan nashr etiladi.

* African Media Barometer – Afrika ommaviy axborot vositalarining barometri: Friedrich-Ebert-Stiftung tomonidan olib boriladi.

Ushbu reytinglarning metodologiyalari nashr etilgan va obyektiv parametrlarni (masalan, jurnalistlarning kasbiy faoliyati bilan bog'liq holda o'ldirilgan soni) va ekspertlarning subyektiv baholarini (masalan, ommaviy axborot vositalarida o'z-o'zini senzura darajasi) o'z ichiga oladi. Miqdoriy ko'rsatkichlar odatda ishonchli hisoblanadi, ammo statistik tahlil etilganda bu holat ham to'liq qiyofani aks ettirmaydi, shuning uchun ular ko'pincha sifatli parametrlar bilan to'ldiriladi. Masalan, ommaviy axborot vositalarining ko'pligi ularning xilma-xilligi va keng ko'lami fikrlarni aks ettirishini anglatmaydi. Xolis yoki tasdiqlanmagan ma'lumotlarning tarqalishi ommaviy axborot vositalarining erkinligi konsepsiyasini obro'sizlantiradi. Ba'zi tahlilchilarning fikriga ko'ra, eng muhim mezon - bu ommaviy axborot vositalari fuqarolarni tinglaydimi yoki ularning nomidan ish tutadimi, shunday.

Ushbu indekslarga qo'yiladigan usullarni tahlil qilish bir qator kamchiliklarni aniqladi. Ba'zi parametrlar me'yoriy xususiyatga ega, masalan, ommaviy axborot vositalariga davlat mulkini yoki xususiy ommaviy axborot vositalariga davlat subsidiyalari so'z erkinligiga salbiy hissa sifatida ko'rish.

To'g'ri, hozircha mamlakatimiz mazkur reytinglarda yuqori darajani egallay olayotgani yo'q. Yuqorida ta'kidlanganiday, bunga so'z erkinligidan uzoq yillik qo'rquv, sukutdan afzali yo'q, kabi ishonchlarimiz ham sabab bo'lsa ajabmas. Ammo mavjud qo'rquvlarga qarshi o'laroq maydonga chiqayotgan SO'Z ERKINLIGI o'z natijasini beradi, deb umid qilamiz. Bu esa barchamizning o'z ovozimizni bildira olishimiz bilan ham belgilanadi. Zero, bitta yoki ikkita ovoz va millionlab sukutdagi tomoshabin bilan uni asrab qolishning hecham imkoni yo'q.

**Gulruh MO'MINOVA,
"Zarafshon" muxbiri.**

**Samarqandda
xalqaro jurnalistlar
tayyorlanmoqda**

Samarqand davlat chet tillar institutining sharq tillari fakul'teti o'zbek tili va adabiyoti kafedrasida xorijiy jurnalistika yo'nalishi ochilganiga uch yil bo'ldi. Bugun ushbu yo'nalishda 90 nafar bo'lg'usi jurnalist tahsil olmoqda.



- Fakultetimizda talabalar uchun radio tashkil qilganmiz, - deydi sharq tillari fakul'teti dekani Dilshod Jo'rayev. - Har kuni xalqaro jurnalistika yo'nalishi ikki nafar talabasi navbatchilik qiladi va ta'limga, oliy ta'lim muassasamizga oid xabarlarini berib boradi. O'quv binomizning har qavatida va tashqarida ovoz uzatkichlar o'rnatilgan. Radioda yangiliklar, musiqali chiqishlar ertalab dars boshlanguniga qadar va katta tanaffuslarda beriladi. Shuningdek, fakul'tetimizning boshqa yo'nalishlari talabalari ham yozgan she'r va hikoyalari radio orqali o'qib beradi. Bu usul talabalarga ham amaliyot, ham kelajakdagi kasbiga mehr, qiziqish uyg'otayti.

- Bundan tashqari, talabalarimiz o'z ijod namunalari institut axborot xizmatiga berib boradi, - deydi fakul'tetning o'zbek tili va adabiyoti kafedrasida o'qituvchisi Muxlisa Xudoyberdiyeva. - Talabalar uchun institut axborot xizmati amaliyot maydoni, ular bilan hamkorlikda ishlaydi. Institutning ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida talabalarning maqolalari berib boriladi. Shuningdek, fakul'tetimizning o'z telegram kanalida ham talabalar tayyorlagan videoroliklar, maqolalar beriladi.

Institutda har yili may oyida jurnalistika yo'nalishi talabalari uchun "Oltin qalam"ga bir qadam tanlovi tashkil qilingan. Bu yilgi tanlovda talabalar matnini tahrir qilish, sport sharhi, reklama matni tayyorlash va uni taqdim etish, notiqlik san'ati kabi yo'nalishlarda o'zaro kuch sinashdi. Tanlov yakunida notiqlik mahoratidan Aziza Muhammadova, tahrir mahoratidan Dilnoza Majidova, futbol sharhidan Zarina Tu'yg'unova faxrli o'rinlarni egalladi.

- Talabalarni xalqaro jurnalistika talabalariga mos mutaxassislar etib tayyorlashga harakat qilyapmiz, - deydi M.Xudoyberdiyeva. - Masalan, turizm jurnalistikasi fanida fotoapparatni ishlatish va kadrlarni sifatli suratga olishni o'rgatadigan bo'lsak, xalqaro jurnalistikada zamonaviy strategiyalar fani doirasida talabalar viloyatdagi gazeta, radio, televideniya amaliyot o'taydi. Dastlab talabalar internet jurnalistika va televideniya qiziqish

bildirgan bo'lsa, bu yil ko'pchilik talabalar gazeta tahririyatlarida ham amaliyotda bo'ldi. Chunki biz ularga avval matn tuzishni o'rganish zarurligini tushuntirdik. Shuningdek, fakul'tetda media markaz tashkil qilishni rejalashtiryapmiz. Hozircha media markazimiz faqat institut bosh binosida bor.

To'g'ri, yangi ochilgan xalqaro jurnalistika yo'nalishi ham muammolardan xoli emas. Masalan, talabalarga o'quv darsliklari va mutaxassislik fanidan dars beradigan o'qituvchilar yetarli emas, ammo fanlar elektron qo'llanmalar bilan to'liq ta'minlangan.

- Bizga yaqinda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligidan xat keldi, - deydi Dilshod Jo'rayev. - Xatda aytilishicha, endi jurnalist kadrlarni tayyorlash bo'yicha O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti tayanch bo'larkan va respublikadagi boshqa jurnalistika fakul'tetlariga hamma darsliklarni yetkazib berarkan. Bu tashabbus ham bizning ayrim muammolarimizga yechim bo'ladi.

Bo'lg'usi xalqaro jurnalistlar uchun eng muhim chet tili bilish. Institutda mazkur yo'nalishda tahsil olayotgan talabalarga uchta chet tili o'rgatilyapti. Birinchisi rus tili, ikkinchi asosiy chet tili talabalarning o'zlari tanlaydi. Uchinchi til ham talabaning tanlovi asosida o'tiladi. Bugun ikkinchi va uchinchi bosqich talabalarining asosiy qismida chet tili bilish bo'yicha xalqaro B-2 darajali sertifikat bor. Hatto ayrim talabalarda ikkinchi chet tili hisoblangan koreys tili bilish bo'yicha ham xalqaro sertifikat mavjud. Shuningdek, talabalar orasida jurnalistika sohasida ilmiy izlanish loyiha borayotganlar bor.

Ancha yildan buyon Samarqanddagi oliy ta'lim muassasalarida jurnalist kadrlar tayyorlanmayotgandi. Biroq Samarqand jurnalistika maktabi har doim o'zining bilimdon va mahorati mutaxassislarini respublika ommaviy axborot vositalariga tayyorlab kelmoqda. Samarqand davlat chet tillar institutida tahsil olayotgan bo'lg'usi jurnalistlar Samarqand jurnalistika maktabining davomchilari bo'lishiga ishonamiz.

Xurshida ERNAZAROVA.



USTOZLARIMDAN NOROZIMAN

Ha, shunday, men maqola yozishni o'rgatgan, sohaga meh-rimni oshirgan ustozlarimdan noroziman. Nega menga bu kasbning mashaqqati, butun umr ko'tarishim kerak bo'lgan og'ir yuki haqida aytmadingiz? Tunlarni bedor, kunlarni sarson-sargardon o'tkazishim, egrini egri, to'g'irini to'g'ri deganim uchun ko'pchilikning dushmaniga aylanishim haqida ogohlantirmadingiz. Bu kammidi, nima uchun o'zimni xalqim oldida muttaham his qilaman?

Aslida men yaxshigina yulg'ich bo'lishim kerak edi-ku, muhit meni shunga tayyorlayotgandi. Yashirib nima qildim, bolaligimda xalqdan, davlatdan o'marish ayb emas, yutuq sanalagan. Ayrim kattalar bizga harom-xarish yo'llar bilan boyib ketganlarni o'rnatib qilib ko'rsatish-

gan. Oyllikka emas, kunlikka ishlash kerakligi, pulning o'zi seni izlab kelsa, "halol" bo'lishini uqtirishgan. Vijdonga kunim qoldimi mening?

Mana, tahririyatning eshiklari oldida turibman. Oliy ta'limni boshqa mutaxassislik bo'yicha o'qib tugat-

gan bo'lsam-da, taqdir meni shu yerga boshlab keldi. Xat-savodim durustdan yomon, maqola tugul oddiy xabar yozishni ham bilmayman. Ustozlar deydi, "Agar o'zingda bo'lmasa, biz berolmaymiz. Sen bu kasbni tanlamaysan, kasb seni tanlashi kerak". Nima ham derdim, rizqimiz shu sohada ekan.

Haqiqiy jurnalisti yuzidan emas, imzodan tanishlari kerak, degan edi ustozlarimdan biri. Avvaliga bu gapning mag'zini chaqa olmadim. Tushuncha tajriba bilan kelar ekan. Boylik, mashhurlik, chiroyli hayot orzusidagilar uchun emas bu ish. Undaylar sohani ham, o'zini ham

sharmanda qiladi. Eslashsa ham yaxshi gaplar bilan emas. Butun umr shu sohada ishlab, haqiqiy jurnalist bo'la olmaganlarni ko'rdim, xulosa qildim. Qaysidir ma'noda ular ham ustozim bo'ldi. Faqat men ulardan qilmasligim kerak bo'lgan narsalarni o'rgandim.

Ustoz, nega jurnalistning qalami qiyinchiliklar charxpalagida charxlanishini aytmadingiz? Bemorning o'yini bilish uchun betob, kambag'alni tushunish uchun nochorlikni his qilishimiz kerak bo'larkan-ku?! O'z uslubing bo'lishi kerak, derdingiz doim. Uslub kabinetda emas, hayotning qaynoq nuqtalarida shakllanar ekan-ku?!

Ustozlarimdan noroziman. Sababi, ular bu kasb menga nima berishi haqida ham lom-lim, deymishmagan.

Gazeta mening taqdirimda

O'zim aytaqolay, soha menga halol yashash imkoniyatini berdi. O'z nafsing buzuv bo'lmasa, hech kim seni harom ishga unday olmaydi. Asosiy, bu kasb menga qalbimni tirnatgan bo'lgan, fikr va g'oyalarni oyoq ko'chirish, boshqalar bilan bo'lishish baxtini berdi. Xalqqa, Vatanga xizmat qilish qanday bo'lishini tushundim. To'g'ri, hali ham ko'p narsalarni o'rganishim kerak, jurnalist bo'ldim, desam, manmanlik bo'lar. Bilganim, shunday ulug' maqomga mos bo'lishim uchun yo'li ochib berdingiz.

Ustozlar, sizlarga tashakkur, bayramingiz muborak bo'lsin!
Asqar BAROTOV.

IJTIMOY YO'NALTIRILGAN BOZOR IQTISODIYOTI –

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovida Xalq demokratik partiyasidan nomzod Ulug'bek Inoyatov dasturidagi ustuvor maqsad



Huquqlar va imkoniyatlar tengligiga erishish har bir jamiyatning asosiy maqsadidir. Mazkur ijtimoiy mezon tarixiy an'analar, odatlar va qadriyatlar zamirida vujudga kelgan tamoyillar majmua-siga asoslangan holda fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish, qonunda belgilangan tartibda huquqlarni amalga oshirish va shu yo'l orqali jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lganlik hisini yanada o'rtiradi. Ushbu mezonlar ustuvor bo'lgan har qanday davlat va jamiyat hamma davrda ham barqaror rivojlangan. O'zbekiston Xalq demokratik partiyasidan Prezidentlikka nomzod Ulug'bek Inoyatovning dasturidagi asosiy g'oya va tashabbuslar mana shu tamoyilga asoslangani bilan ahamiyatlidir.

BARQAROR TARAQQIYOT VA IJTIMOY FAROVONLIK

Fuqarolarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini rivojlantirish jamiyatda barcha uchun teng imkoniyatlarni ta'minlashning muhim omillaridan biri. Chunki faol bozor munosabatlarga o'tish sharoitida aholining ehtiyojmand qatlami huquq va manfaatlarini hisobga olinishi iqtisodiyotning umumiy barqarorligini kafolatlaydi.

Nomzod dasturining 5-yo'nalishi "Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti – barqaror taraqqiyot va ijtimoiy farovonlik asosi" deb nomlangani bejiz emas.

Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti tarafdori bo'lgan O'zbekiston Xalq demokratik partiyasidan Prezidentlikka nomzod ham iqtisodiy rivojlanishning ijtimoiylikka yo'naltirilgan modelini barqaror taraqqiyot va xalq farovonligining asosi, deb biladi. Zero, partiyaning dasturiy maqsad va vazifalari negizida aynan shu tamoyil mujassamdir.

Biz jamiyat va davlatning asosiy maqsadi qatorida **tengsizlik va kambag'allikni bartaraf etish**, ushbu holatlarning oldini olish hamda bu borada kechiktirib bo'lmaz chora-tadbirlar ishlab chiqishni ko'ramiz.

Bu borada olib borilgan tadqiqotlar natijasi hamda olingan xulosalarga ko'ra, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti shunday tizimki, u **bir tomondan**, erkin bozorning o'zini o'zi tartibga solish tamoyillariga asoslan-sa, **ikkinchi tomondan**, xususiy tadbirkorlik va nodavlat sektorning ijtimoiy barqarorlikka xizmat qilishini ta'minlaydi. Bozor iqtisodiyotining bu shaklida yalpi ichki mahsulot va milliy daromadni qayta taqsimlashda davlat muhim rol o'ynaydi.

Dunyo davlatlari tajribasiga nazar salsak, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini yuritishda yetakchilardan sanalgan Skandinaviya davlatlari, Niderlandiya, Germaniya kabi mamlakatlarda ijtimoiy tenglikka asoslangan munosabatlarga iqtisodiy samaradorlikka erishishning muhim omili sifatida qaraladi.

DAVLATNING IJTIMOY MAS'ULIYATI

Mavjud an'anaviy iqtisodiy munosabatlarda biznesning ijtimoiy mas'uliyati belgilanib, aholining ijtimoiy himoyasi bilan amalga oshiriladi. 2020-yildagi global pandemiya, uning ortidan geosiyosiy maydondagi ziddiyatlar tufayli paydo bo'lgan inqiroz sharoitida juda ko'plab davlatlar uchun sog'liqni saqlash tizimini qo'llab-quvvatlash hamda aholini ijtimoiy himoya qilish eng ustuvor yo'nalishlarga aylandi. Bu o'z-o'zidan inson omili bilan bog'liq holatlar inobatga olingan holda erkin bozor iqtisodiyotiga xos jarayonlarni qaysidir darajada jilovlab, tengsizlikni, kambag'allik xavfini yumshatish masalasini kun tartibiga olib chiqdi.

Bu borada xalqaro tashkilotlarning ba'zi ma'lumotlariga e'tibor qaratish kifoya. Jumladan, Xalqaro mehnat tashkilotining **"2020-2022-yillarda dunyoda ijtimoiy himoya. Ijtimoiy himoya buriilish nuqtasida – yorqin kelajak sari"**, deb nomlangan hisobotida keltirilishicha, Yer yuzidagi insonlarning 47 foizi ijtimoiy himoyaning kamida bitta turidan foydalanadi, 53 foizi (4,1 milliard kishi) esa o'zlarining milliy ijtimoiy himoya tizimlarida daromad kafolatiga ega emasligi qayd etilgan.

Bugun dunyo davlatlari ijtimoiy siyosatda buriilish pallasida ekaniga ishora qilingan ushbu hisobotda ijtimoiy himoya sohasida jiddiy mintaqaviy tafovutlar borligi aytiladi. Ahamiyatli, Yevropa va Markaziy Osiyo davlatlarida fuqarolar ijtimoiy himoya bilan eng ko'p qamrab olingan bo'lib, uning kamida bitta turidan aholining 84 foizi foydalanmoqda.

O'zbekiston Xalq demokratik partiyasidan Prezidentlikka nomzod Ulug'bek Inoyatovning saylovoldi dasturida ilgari surilayotgan tashabbuslardan biri **"Iqtisodiy siyosatning ijtimoiy samaradorligi – muhim"** ekanligidadir.

Nomzod dasturida bozor iqtisodiyotining samarali amal qilishi uchun yetarli **iqtisodiy-huquqiy shart-sharoitlarni yaratish**, raqobatni himoya qilish barobarida inflyatsiya va ishsizlikni kamaytirish **davlatning muhim vazifasi** bo'lishi kerakligi ilgari surilmoqda.

Dasturda iqtisodiy siyosatning ijtimoiy samaradorligini ta'minlash uchun **11 banddan iborat ustuvor vazifalar** keltirilgan. Xususan, nomzod iqtisodiyotda davlatning faol roli va ishtiroki saqlab qolinishi kerakligiga e'tibor beradi. Chunki jamiyatimizda bozor munosabatlarni tartibga solish va ijtimoiy tenglikni ta'minlash jarayoni davlat ishtirokisiz bo'lmisligi kunday ravshan.

IJTIMOY TENGLIK G'OYASI

Nomzod dasturidagi **tashabbuslarning zamirida ijtimoiy tenglik g'oyasi** yotadi. Deylik, qimmatbaho mol-mulk uchun soliq joriy etish, bunda miqdori qonun bilan belgilangandan yuqori uy-joy, avtotransport yoki boshqa mol-mulk mulkdorlaridan ushbu soliqning undirilishini nazarda tutish masalasi mohiyati va ahamiyatiga ko'ra bugungi kunda dolzarbdir. Agar soliqlar ijtimoiy himoya maqsadlariga xizmat qilinishi nazarda tutsak, qimmatbaho mol-mulk uchun soliq to'lash ham insoniylik, ham an'anaviy qarashlarimizga, qadriyatlarimizga mos hamda muvofiqiligini anglaymiz. Mazkur tajriba bugungi kunda dunyoning qator davlatlarida samarali natijalarni ko'rsatmoqda.

Hozirda hayotimizni internet va ijtimoiy tarmoqlarsiz tasavvur qila olmaymiz. Axborot olish va axborot yetkazish, muloqot qilish bilan bog'liq ehtiyojlarimizni aynan ular bilan bog'laymiz. Shu bilan birga, bugun internet va ijtimoiy tarmoqlar tijoriy faoliyat hamda reklama maydoniga ham aylanib bormoqda. Qo'lmezbog'liq mitti qurilma orqali global tarmoqqa ulansak, go'yoki onlayn do'konlaru onlayn xizmat ko'rsatish turlari kun emas, soat sayin ko'payib borayotgandek tuyuladi. Internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali tijoriy faoliyat bilan, reklama bilan shug'ullanib, **o'rtacha oylik nominal ish haqidun yuqori foyda ko'rayotganlardan** barcha soha ishchi-xodimlari qatorida daromad solig'ini undirish masalasida aniq mexanizmlar joriy etish ham muhimdir.

KUCHLI IJTIMOY SIYOSAT UCHUN

KUCHLI BUDJET

Dasturda mamlakatning iqtisodiy qudrati, eng avvalo, kafolatlangan budgetga bevosita bog'liqligini inobatga olib, undiriladigan barcha to'lovlarni (jarima, davlat boji, yig'im, boshqa majburiy undiruvlar) davlat budgetiga yo'naltirish tartibini joriy etish taklif etilmoqda.

O'z navbatida tabiiy savol tug'ilishi mumkin, ya'ni nomzodning saylovoldi dasturida ilgari surilayotgan ushbu g'oya jamiyat va davlatga qanchalar muhim?

Ma'lumki, mamlakatda **ijtimoiy masalalarni samarali hal qilish butun dunyoda asosan davlat budjeti daromadlari bilan bog'liq**. Shuning uchun mamlakatimizda budget tushumlarini oshirish masalasi dolzarb ahamiyatga ega bo'lmoqda. Hozirda jarima, davlat boji, yig'im, boshqa majburiy undiruvlarning ma'lum qismi davlat budgetiga emas, turli vazirlik va idoralarning jamg'armalari hisobiga tushmoqda. Bu holat o'z-o'zidan budget daromadlari yanada oshib borishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Prezidentlikka nomzod o'z saylovoldi dasturi orqali ayni vaqtda budgetdan tashqari jamg'armalardagi mablag'larning qanchalik **ijtimoiy samarali ishlatilayotgani ustidan doimiy parlament nazoratini o'rnatish** imkoniyati ham yetarli emas, deb hisoblaydi. Shu sababli nomzod dasturidagi undiriladigan barcha to'lovlarni (jarima, davlat boji, yig'im, boshqa majburiy undiruvlar) davlat budgetiga yo'naltirish tartibini joriy etish taklifi juda muhimdir.

Xalqaro tajribalar shuni ko'rsatmoqdaki, aholining ehtiyojmand qismi muammolarining yechimi asosan ularning bandligini ta'minlash orqali amalga oshiriladi.

Davlat – asosiy tartibga soluvchi

Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 65-moddasiga ko'ra, fuqarolar farovonligini oshirishga qaratilgan O'zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etadi. Davlat bozor munosabatlarni rivojlantirish va halol raqobat uchun shart-sharoitlar yaratadi, iste'molchilarning huquqlari ustuvorligini hisobga olgan holda iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini kafolatlaydi.

Nomzod o'zining saylovoldi dasturidagi **davlatning asosiy tartibga soluvchilik rolini kuchaytirish** g'oyasi konstitutsiyaviy qoidalar asosida ishlab chiqilganligini e'tirof etish lozim.

Bozor munosabatlarga asoslangan iqtisodiyotda davlatning asosiy tartibga soluvchilik roli bugungi kunda muhim. Biroq erkin bozor munosabatlari tarafdorlari investitsiya muhitini yaxshilash, iqtisodiy faoliyatga erkinlik berish, valyuta va narx siyosatini yanada erkinlashtirish, xususiylashtirish va iqtisodiyotda davlatning rolini qisqartirish afzalliklarini nazariy-amaliy jihatdan asoslashga kirishadilar. Xuddiki, davlatning bozor munosabatlarga amalashuvi ayrim hollarda qonundan og'ish, monopoliya va korrupsiyaga yo'l ochish kabi illatlarni yuzaga keltirishini iddao qiladilar.

Xalq demokratik partiyasi esa bundan farqli ravishda iqtisodiyotni liberallashtirish va erkin bozor munosabatlari har doim ham jamiyatni ijtimoiy rivojlantirish maqsadlariga erishish kafolatini bermaydi, deb hisoblaydi. Chunki erkin bozor qonunlari kezi kelganda insonparvarlik tamoyillaridan chetga chiqib, ijtimoiy tafovutlar hamda tengsizlikning chuqur ildiz otishiga sabab bo'lishi mumkin. Bu esa ijtimoiy barqarorlik sari intilgan jamiyat uchun xos emas. Qolaversa, samarali boshqaruvga ega **davlatning asosiy tartibga soluvchilik roli bozor munosabatlarni rag'batlantirib, ijtimoiy-iqtisodiy samara keltiradi.**

Nomzod dasturida davlatning iqtisodiyotni tartibga soluvchilik rolini kuchaytirish uchun bir **qator izchil tashabbuslar** o'rin olgan. Hududlarning barqaror rivojlanishi uchun **davlat daromadlarini teng va adolatli taqsimlash**, umumxalq ahamiyatiga ega **iqtisodiyot tarmoqlarining boshqaruvida davlat ishtirokini mustahkamlash**, davlat ulushi bo'lgan yirik ishlab chiqarish korxonalarini **kuzatuv kengashlari tarkibiga jamoatchilik vakillarini kiritish** orqali ular ishidagi shaffoflikni oshirish kabi muhim takliflar jumlasidandir.

Barcha saylovchilarni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovida Xalq demokratik partiyasidan nomzod Ulug'bek Inoyatov dasturini qo'llab-quvvatlashga chaqiramiz!

To'liqin TO'RAXONOV, O'zXDP Markaziy Kengashi raisi o'rinbosari.

YANGI O'ZBEKISTON – INSON QADRI ULUG'LANGAN MAMLAKAT



Barchamiz uchun yagona Vatan – jonajon O'zbekistonimiz tarixan juda qisqa, olti yarim yillik davrda insonparvar demokratik davlatni barpo etish borasida g'oyat yuksak marralarga erishdi.

Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning saylovoldi dasturi bosh falsafasi – inson qadri ulug'lash, xalq irodasini, orzu-umidlarini ro'yobga chiqarish. Unda o'tgan yillarda mamlakatda qilingan ishlardan kelib chiqib, keyingi bosqichda amalga oshiriladigan ishlar ko'lami aniq belgilab berilmoqda.

SUV RESURSLARINI TEJASH VA ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISH – STRATEGIK VAZIFAMIZ

Partiyamizdan nomzodning saylovoldi dasturidan o'rin olgan beshta strategik yo'nalishdan biri sifatida suv resurslarini tejash va atrof-muhitni muhofaza qilish etib belgilangan.

Cheklangan resurs hisoblanmish suvdan samarali foydalanish maqsadida partiya dan nomzodimiz o'z dasturida sug'orishda suv tejaydigan texnologiyalarni joriy qilish ishlarini yanada jadallashtirishni taklif etmoqda. Jumladan, ushbu takliflar qatorida:

– 2030-yilga qadar ekin maydonlarini to'liq suv tejaydigan texnologiyalarga o'tkazish;

– dalalarga suv yetkazadigan obyektarni fermer va klasterlar boshqaruvida berish, suv yetkazish tizimiga rivojlangan davlatlar tajribasini keng joriy qilish;

– suv tejaydigan texnologiyani joriy qilgan fermer va dehqonlarni yanada rag'batlantirish va bunga 10 foizli kredit ajratish, o'z hisobidan joriy qilganlarga esa, xarajatning 50 foizini qoplab berish tartibini joriy etish kabi takliflar o'rin olgan.

Nomzodimiz saylovoldi dasturida xalqimizni o'ylantirgan yana bir muhim muammo – atrof-muhitni muhofaza qilish borasida ham so'z bormoqda.

Atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi qonunchilik bugungi kun talablaridan kelib chiqib takomillashtirildi.

Nomzod saylovoldi dasturida bu sohada 2030-yilgacha bo'lgan davrda aniq chora-tadbir va rejalarni amalga oshirish belgilangan.

QONUN USTUVORLIGINI TA'MINLASH, XALQ XIZMATIDAGI DAHLAT BOSHQARUVINI TASHKIL ETISH

Sud-huquq va davlat boshqaruvi sohasida so'nggi olti yarim yillik islohotlarni tahlil qilar ekanmiz, jamiyatimiz hayotida adolat tamoyilini tom ma'noda qator toptirish, odil sudlovga erishish, shuningdek, davlat organlarining xalq dardi bilan yashashini ta'minlash borasida keng ko'lamlil ishlar amalga oshirildi.

Shu munosabat bilan nomzodimiz dasturida bu yo'nalishda quyidagi vazifalar ustuvor deb belgilandi.

Jumladan:

– raqamlashtirish orqali byurokratiyani bartaraf etish prinsipini hayotimizga jadal olib kirish;

– davlat xizmatlarini to'liq elektron shaklga o'tkazib, davlat boshqaruvida mavjud bo'lgan minglab funksiyalarni bosqichma-bosqich raqamlashtirish;

– fuqarolarning davlat xizmatlaridan foydalanish uchun murojaat qilishida ortiqcha formal tartiblarni bekor qilish, davlat idoralari zarur hujjatlarni elektron bazadan o'zi oladigan tizimini yaratish;

– har bir mahallada elektron xizmat nuqtalari ishga tushirilib, mahallalarni barcha masalalarni "bir qadam" tamoyili asosida hal etadigan mas-kanga aylantirish;

– davlat tomonidan fuqarolik xizmati tizimini raqamlashtirish ishlarini jadallashtirishga alohida ahamiyat berish;

– hokimlarning Kengashga rahbarlik vakolati bekor qilinishi bilan ularning Kengash oldida, xalq oldida hisobdor bo'lishini, mas'uliyati va javobgarligi oshirishini ta'minlash;

– hokim va mahalliy Kengashning javobgarlik doirasi va aniq vazifalari belgilangan holda, ular faoliyatida jamoatchilik ishtirok etishi uchun zarur sharoitlarni yaratish;

– mol-mulk va yer soliqlarini mahallada qoldirish;

– kelgusi yillarda "Ochiq budget"ga beriladigan mablag'ni 3 karra oshirib, 24 trillion so'mga yetkazish bo'yicha choralar ko'rish;

– mahalla raislarining vakolat muddatini 3 yildan 5 yilga uzaytirish va hokazo.

Sud-huquq sohasidagi islohotlar izchilligini ta'minlash hamda sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish uchun nomzodimiz dasturida qator ustuvor vazifalar ham belgilangan.

YANGI O'ZBEKISTON – XAVFSIZ VA TINCHLIKSEVAR DAHLAT

Yangilangan Konstitutsiyada O'zbekiston Respublikasi davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan ikki

va ko'p tomonlama munosabatlarni har taraflama rivojlantirishga qaratilgan tinchliksevar tashqi siyosatni amalga oshirishi belgilangan.

Tashqi siyosat sohasida nomzodimiz dasturiga quyidagi keng ko'lamlil vazifalar kiritilgan. Jumladan:

– Yangi O'zbekiston tashqi siyosatini faqat xalqimiz va davlatimizning milliy manfaatlaridan kelib chiqqan holda olib borish;

– O'zbekistonning siyosiy, savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar sohalardagi tashabbuslarini xalqaro maydonda faol ilgari surish;

– qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik va strategik sheriklik munosabatlarni jadal rivojlantirish;

– Markaziy Osiyoda turli yo'nalishlar, ayniqsa, suv resurslaridan oqilona foydalanish, transport yo'laklarini rivojlantirish borasidagi amaliy hamkorlikni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish;

– xorijdagi vatandoshlarni qo'llab-quvvatlab, ularning yurtimiz taraqqiyotida faol ishtirok etishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratib berish;

– xorijdagi vatandoshlarimiz orasida ona tili, milliy madaniyat va an'analarni targ'ib etish bo'yicha tizimli choralar ko'rish;

– vatandoshlarimizga dunyoning istalgan nuqtasidan mamlakatimizdagi davlat xizmatlaridan masofadan turib foydalanish imkoniyatini yaratish;

– tashqi mehnat migratsiyasi tizimini to'liq isloh qilib, xorijga ishlash uchun borayotgan aholini kasbga va chet tillarga o'qitish ko'lamlilni kengaytirish;

– xorijda ishlash istagidagi yurtdoshlarimiz Yevropa va Osiyoning yuqori haq to'lanadigan mamlakatlarga ishga borishi uchun davlat tomonidan ko'mak berish tartibini joriy etish;

– murakkab vaziyatga tushib qolgan yurtdoshlarimizga huquqiy va boshqa yordamlar ko'rsatish ko'lamlilni kengaytirish;

– mehnat migrantlari va ularning oila a'zolari davlatimiz doimiy amxo'rlikda bo'lishi, ularning farzandlari o'qishi va oliygozlarga kirishida ham yengilliklar berish bo'yicha choralar ko'rish.

Xavfsizlikni ta'minlash masalasida ham O'zbekistonning davlat mustaqilligi, uning sardahlari daxlsizligi va hududiy yaxlitligini yanada mustahkamlash bosh maqsad qilib qo'yilmoqda.

Oxirgi yillarda mazkur sohada amalga oshirilgan islohotlar natijasida O'zbekistonning mudofaa salohiyati mustahkamlanib, Qurolli Kuchlarning jangovar tarkibi va shayligi ta-komillashtirildi. Harbiy xizmatchilarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash maqsadida so'nggi bir yilning o'zida 3 mingdan ortiq harbiy uy-joy bilan ta'minlandi.

Shu bilan birga, nomzodimiz dasturida bu borada kelgusi yetti yilda quyidagi chora-tadbir va rejalarni amalga oshirish belgilangan:

– Qurolli Kuchlarimizning qudrati, mudofaa qobiliyatimiz va harbiy salohiyatimizni yanada oshirish maqsadida milliy armiyamizni 2030-yilga qadar eng zamonaviy qurol-aslaha va harbiy texnika bilan ta'minlash;

– harbiy-jangovar qudrat va yuksak ma'naviy salohiyatni O'zbekiston Qurolli Kuchlarining ikki buyuk tayanchiga aylantirish;

– yosh avlodni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash, milliy va umuminsoniy qadriyatlariga hurmat g'oyasi atrofida birlashtirish bo'yicha alohida dastur asosida ish olib borish;

– davlatimiz ramzlari, xususan, bayrog'imiz xonadonlarda ham hilpirab turishi uchun zarur huquqiy asoslar yaratish, uni milliy g'ururimiz tim-soliga aylantirish.

Biz yurtdoshlarimiz, saylovchilarimizni Yangi O'zbekistonni birgalikda qurishga davlat etamiz. Zero, Yangi O'zbekiston orzusini amalga oshirishda eng katta tayanchimiz, bu – xalq. Eng ezgu niyatimiz xalqimizni baxtli va farovon ko'rishdir.

Nomzodimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev uchun ovoz berishga chaqiramiz! Barno MIRZAMOVA, Baxitbay ALDAMURATOV, Zafar XUDOYBERDIYEV, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari, O'zLiDeP fraksiyasi a'zolari.

ADOLATLI KELAJAKNI TANLAYMIZ



“Adolat” sotsial-demokratik partiyasidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod Robaxon Mahmudovning saylovoldi dasturida to‘qqizta yo‘nalish bo‘yicha amalga oshiriladigan ishlar belgilab olingan. “Adolat” sotsial-demokratik partiyasining dasturlariga hamohang va uyg‘un bu yo‘nalishlarda Vatanimiz taraqqiyoti yo‘lida demokratik, huquqiy, ijtimoiy davlat va barcha uchun farovonlik ta‘minlangan adolatli fuqarolik jamiyatini qurish maqsadi bayon etilgan. Maqsadga erishish yo‘li nimalardan iborat? Ular jamiyatimizda qanday yangiliklarga, o‘zgarishlarga yo‘l ochib beradi? Ushbu masalalar ayni paytda malakali ekspertlar tomonidan jiddiy tahlil qilinib, ular haqida turli fikr-mulohazalar bildirilmoqda. Quyida nomzodning saylovoldi dasturi xususida bildirilgan fikr-mulohazalardan ayrimlarini e‘tiboringizga havola qilamiz.

Xolidjon KOMILOV, O‘zbekiston Qahramoni, senator, Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazining oftalmologiya kafedrasini professori:

— “Adolat” sotsial-demokratik partiyasidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod Robaxon Mahmudovning saylovoldi dasturi to‘rtinchi yo‘nalishi sog‘liqni saqlash tizimiga bag‘ishlangan. Unda jumladan, davlat hisobidan ko‘rsatiladigan tibbiy xizmatlar va dori vositalari ro‘yxatini takomillashtirish, ijtimoiy dori-xonalarni rivojlantirish, og‘ir kasalliklarni davlat tomonidan davolashni kengaytirish masalalariga alohida ahamiyat qaratilgan.

E‘tibor bering, yurtimizga har xil dori vositalari kirib kelaversa, bu dori vositalarining aholi sog‘lig‘ini yaxshilash o‘rniga zararli tomonlari mavjud bo‘lsa, xo‘sh, bunga kim javob beradi? Shunday ekan, davlat tibbiyot tashkilotlarining xizmat faoliyatini takomillashtirish va dori vositalari ro‘yxatini davlat tomonidan qat‘iy e‘tibor bilan shakllantirish hayotiy zarurat hisoblanadi.

Dasturda nodavlat tibbiyot tashkilotlarini tijorat tashkilotidan notijorat tashkilotiga o‘tkazish masalasi ham o‘rtaga tashlangan. Bu ayni yuqoridagi masalani ijobiy hal qilishning yana bir samarali usuli hisoblanadi. Chunki tibbiyot tashkiloti butunlay tijorat tashkilotiga aylansa, mablag‘ ketidan quvish boshlanadi. Mablag‘ ketidan quvish esa sog‘liqni saqlash tizimida ahvolni qiyinlashtiradi, ijtimoiy maqsadlardan tijoriy maqsadlar ustun qo‘yilishiga sabab bo‘ladi. Tizimda turli illatlarning yuzaga kelishiga omil yaratadi. Shuning uchun ham ularni notijorat tashkilotga aylantirish maqbul yo‘l ko‘rinadi. Bu amaliyot Janubiy Koreya va boshqa qator rivojlangan davlatlar tajribasiga to‘la mos keladi.

Farmatsevtika va tibbiyot xodimlari orasidagi yashirin kelishuvlar ortidan bemorlarga haddan ziyod dorilar sotib olishga ta‘sir ko‘rsatish yuqorilagan, O‘zbekiston antibiotiklar iste‘moli bo‘yicha yetakchi o‘rinlarda ekan haqidagi fikrlar ham hech kimni e‘tiborsiz qoldirmaydi. Afsuski, bunday salbiy holatlar hayotimizda mavjud va ularni bartaraf etish zarur. Axir bunday kelishuvlar oqibatida fuqarolarning qanchadan-qancha mablag‘lari ko‘kka sovuriladi, eng achinarlisi, fuqarolarimizning sog‘lig‘iga ziyon yetadi. Shuning uchun ham nomzod o‘z saylovoldi dasturida dorilarning yagona elektron bazasini yanada takomillashtirish masalasini o‘rtaga qo‘yadi. Bu orqali dori-darmonlarning noqonuniy aylanmasini, farmatsevtika va tibbiyot xodimlari o‘rtasidagi yashirin kelishuvlarni hamda dorilar narxining asossiz oshirilishini bartaraf etish mumkin, deb hisoblanadi.

Umuman olganda, sog‘liqni saqlash tizimini ijtimoiy davlat tamoyiliga muvofiqlashtirish va shu asosda “O‘zbekiston Respublikasining Sog‘liqni saqlash kodeksi” loyihasini yanada takomillashtirish masalasi dasturdagi asosiy yo‘nalishlardan biri qilib belgilangan.

Ismoil SAIFNAZAROV, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori, falsafa fanlari doktori:

— “Adolat” SDP nomzodi o‘z saylovoldi dasturida o‘qituvchining obro‘-e‘tibori — bu avvalo, millatning, butun xalqning obro‘-e‘tibori ekaniga alohida urg‘u bermoqda. Partiya ham o‘z elektoratining salmoqli qismini tashkil etgan pedagog xodimlarning nufuzini oshirish hamda yuksak maqomini belgilash orqali ularning jamiyat hayotidagi rolini mustahkamlashga qaratilgan huquqiy choralarini ko‘rish tarafdori. Shu maqsadda o‘qituvchining maqomiga oid qonunning tez fursatda qabul qilinishi nomzodning dasturida ustuvor masala sifatida e‘tirof etilgan.

Milliy iqtisodiyotimizning barqaror o‘shishi, eng avvalo, zamonaviy ilg‘or texnologiyalarning hayotga tatbiq etilishi bilan bog‘liq. Zamonaviy ilg‘or texnologiyalarni hayotga tatbiq etish uchun esa ta‘lim, ilm-fan, innovatsiyalarni rivojlantirish talab etiladi. Shuning uchun dasturda fan — ta‘lim — ishlab chiqarish tizimlarining uzviy aloqadorligini ta‘minlash masalasi zamonaviy ilg‘or texnologiyalarni yuzaga keltirishning asosi sifatida belgilanadi. Har qanday jamiyatda ta‘limni rivojlantirishdan turib, ilm-fan sohasida yangiliklarni yaratib bo‘lmaydi. Ilm-fan sohasida yangiliklar bo‘lmasa, innovatsiyani yuksaltirish, yangi texnologiyalar yaratish qiyin kechadi. Bularsiz esa jamiyat taraqqiyoti yuzaga kelmaydi. Shu sababli nomzod dasturida ta‘lim, ilm-fan, innovatsiyani yanada rivojlantirish masalasini kundalik hayotimizning asosiy vazifalaridan biri, deb belgilaydi.

Prezidentlikka nomzod saylovoldi dasturida bu yo‘nalishdagi asosiy maqsadni mamlakatimizda innovatsion rivojlantirishni jadallashtirishdan, iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridan innovatsiyalar va texnologiyalarni ishlab chiqarishga keng tatbiq qilishdan, inson kapitalini, ilm-fan va innovatsiya sohalarini rivojlantirishdan iborat, deb belgilaydi. Yurtimiz, Vatanimiz taraqqiyoti uchun xizmat qiladigan bunday g‘oyalarni qo‘llab-quvvatlayman.

Inna KORJIKOVA, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati, O‘zbekiston “Adolat” SDP fraksiyasi a‘zosi:

— Mamlakatimizda xotin-qizlarning jamiyatda tutgan o‘rni alohida ahamiyatga molik masaladir. Xotin-qizlarga munosabat ma‘lum muddatning talab etadigan masala emas. Bu doimiy izchillikni, muntazam e‘tiborni va qat‘iyatni talab etadigan masala. Zero, har qanday jamiyatning

darajasi uning ayollarga bo‘lgan munosabati bilan belgilanadi, degan hikmat bejiz aytilmagan. Ayollarimizning oilada tutgan o‘rni beqiyos. Oqila ayollar o‘z mehri bilan oiladagi muhitni, qolaversa, butun jamiyatdagi muvozanatni saqlab turadi.

Nomzod dasturida adolatli jamiyat va huquqiy davlat qurish jarayonida ayollar va erkaklarning teng huquqliligini ta‘minlash, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularning turli soha va tarmoqlarda o‘z qobiliyat va imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishi uchun shart-sharoitlar yaratish, huquq va qonuniy manfaatlarini so‘zsiz ta‘minlashga oid qonun hujjatlarini ishlab chiqish va takomillashtirish o‘z faoliyatining ustuvor yo‘nalishlari sifatida qayd etilgan. Xotin-qizlarning bandligini ta‘minlash, mehnat sharoitlarini yaxshilash, ayniqsa, qishloq joylaridagi xotin-qizlarni oilaviy va xususiy tadbirkorlikka, hunarmandchilikka keng jalb etishga alohida e‘tibor qaratilgan ham e‘tirofga molik.

Eng muhimi, nomzod jamiyatda xotin-qizlar faolligi va rolini oshirishda bardavom bo‘lib, barcha bo‘g‘indagi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarida xotin-qizlar vakillarini ko‘paytirishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan.

Shuningdek, saylovoldi dasturida mazkur hayotbaxsh konstitutsiyaviy normalardan kelib chiqqan holda, “Onalik, otalik va bolalikning davlat muhofazasi to‘g‘risida”gi Qonunni qabul qilish tashabbusini ilgari surmoqda.

Nomzod dasturida reproduktiv salomatlik va demografik rivojlantirish barqaror ta‘minlash maqsadida “Sog‘lom oila — sog‘lom jamiyat 2030” dasturini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish rejasini ham alohida qayd etib o‘tgan. Bu yerda gap, albatta, oilaning ham jisman, ham ma‘nan sog‘lomligi haqida ketayotgani masalaning dolzarbligini yanada oshiradi, deb o‘ylayman. Yuqoridagilardan kelib chiqib, barchani nomzodimizni qo‘llab-quvvatlashga chaqiraman!

Zuhra IBRAGIMOVA, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikerining o‘rinbosari, “Adolat” SDP fraksiyasi rahbari:

— “Adolat” sotsial-demokratik partiyasidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod Robaxon Mahmudovning saylovoldi dasturida davlat boshqaruvi takomillashtirish borasida bir qator takliflar ilgari surilmoqda. Misol uchun, har qanday oila o‘z oila boshqaruvi rejali asosda amalga oshirib borsa, shubhasiz, o‘sha oila a‘zolarining hayoti farovon, dasturxonni to‘kin, kelajagi nuri bo‘ladi.

Nomzodimizning saylovoldi dasturida davlat boshqaruvi yanada takomillashtirish, parlamentarizm va parlament demokratiyasini yanada rivojlantirish yuzasidan bir qator yangi g‘oyalari ilgari surilmoqda. Xususan, nomzod mahalliy Kengashlarga tuman (shahar) hokimlariga nisbatan ishonchsizlik bildirish huquqini berishni taklif etmoqda. Bu masalaning mohiyati nimada? Bu taklifning qanday ahamiyati bor?

Kuchli fuqarolik jamiyatiga o‘tayotgan mamlakatimizda so‘nggi yillarda joylarda ijro hokimiyati ustidan samarali nazoratni ta‘minlash maqsadida mahalliy Kengashlarga bir qator vakolatlar berildi. Ijro hokimiyatining mahalliy Kengashlar oldidagi hisobdorligi, budget jarayonini nazorat qilish kabi vakolatlar shular jumlasidan.

Biz hududlarda hokimlarning hisobdor bo‘lishi tarafdorimiz. Shu bois nomzodimizning mahalliy Kengashlarga, hokimlarga ishonchsizlik bildirish huquqini berish borasida ilgari surayotgan taklifini o‘ta dolzarb va muhim ahamiyatga ega, deb hisoblaymiz. Chunki mazkur tizim ishga tushgan taqdirida hokimlarning ham, mahalliy Kengashlar deputatlarining ham o‘z ishiga mas‘uliyat bilan qarashi, javobgarlik hisi kuchayadi. Bu esa, o‘z navbatida, xalq manfaatini va jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladi.

Qutbidin BURHONOV, Oliy Majlis Senatining Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo‘mitasi raisi:

— Prezidentlikka nomzod dasturining birinchi yo‘nalishi “Huquqiy davlat qurish”ga bag‘ishlangan. Shu sababli bu yo‘nalishda avvalo, “Biz “Qonun ustuvorligi — adolatli jamiyat qurishning muhim sharti!” degan tamoyilni jamiyatning har bir a‘zosi, ayniqsa, mansabdor shaxslar faoliyatining muhim qoidasiga aylantirishga intilamiz”, degan g‘oya ilgari surilgan.

Dasturda sudlar adolat himoyachisiga aylanishi kerak, degan fikr ham ilgari surilgan. Buning uchun bir qator masalalarni ijobiy hal qilish kerak. Avvalo, sudylar sonini ko‘paytirish, ularning ixtisoslashuvini kengaytirish, qolaversa, sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning ish uslubini, tafakkurini o‘zgartirish, ya‘ni sudylar faoliyatidagi eskicha yondashuvlarni bartaraf etib, ular faoliyatini jazolash g‘oyasidan adolat, tenglik, erkinlik g‘oyalariga o‘tkazish zarurligi ilgari suriladi.

Adolatli jamiyat va huquqiy davlat qurish uchun faqat adolatli qonunlar ishlab chiqish, sud tizimi mustaqilligini mustahkamlashning o‘zi bilan ish bitmaydi. Ayni paytda jamiyatning barcha jabhalarida qonunchilik va insonparvarlik tamoyillariga amal qilish uchun jamoatchilik nazoratini kuchaytirish ham talab qilinadi. Jamoatchilik nazorati esa siyosiy kuchlar — partiyalarning jamoatchilik va ijtimoiy tashkilotlar bilan hamkorligi natijasida yuzaga keladi. Buning nomzodimiz ham partiyaning jamoatchilik faoliyatini yanada kuchaytirish tarafdori.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentligiga “Adolat” sotsial-demokratik partiyasidan nomzod Robaxon Mahmudovaga ovoz bering!

“YASHIL IQTISODIYOT” KELAJIMIZ KAFOLATI



Bugun insoniyat yangi tahdidlar oldida turibdi. Sayyoramiz aholisi ko‘payishda davom etyapti, tabiiy resurslar zaxirasi esa muttasil ravishda qisqarmoqda. Avvalo, global ekologik muammolarning keskinlashuvini kuzatyapmiz. Dunyo hamjamiyati esa vaziyatni o‘nglash uchun jahon iqtisodiyotida «yashil taraqqiyot» tamoyillarini joriy qilish zarurligini ta‘kidlamoqda. Mazkur yondashuv BMT Barqaror taraqqiyot maqsadlarida ham o‘z ifodasini topgan.

Markaziy Osiyo va butun dunyo uchun dolzarb ahamiyatga ega Orol fojiasi, shuningdek, yer va suv resurslaridan samarasiz foydalanish, yerlar va ekotizimning tanazzulga uchrashi, biologik xilma-xillikning, o‘simlik va hayvonot dunyosi turlar genofondining qisqarishi, atmosfera havosi va oqova suvlarning ifloslanishi, sanoat va maishiy chiqindilarning to‘planishi kabi ekologik muammolar har bir mamlakatning bu masalaga yanada jiddiy e‘tibor qaratishini taqozo etmoqda. Bu kabi muammolar biz uchun ham juda muhim va kechiktirib bo‘lmaydigan masalalar hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentligiga ko‘rsatilgan nomzod Abdushukur Hamzayevning saylovoldi dasturida birinchi yo‘nalish **mamlakatning barqaror rivojlanishini ta‘minlash va «yashil» iqtisodiyotga o‘tishini jadallashtirishga** bag‘ishlangani ham ushbu maqsadning naqad ustuvor va ahamiyatli ekanidan dalolatdir.

«Yashil» iqtisodiyotga o‘tish uchun O‘zbekiston Ekologik partiyasi o‘z saylovoldi dasturida qator maqsadlarni o‘z oldiga qo‘ymoqda:

Birinchidan, iqtisodiyotning barcha sohalarini «yashil» iqtisodiyotga o‘tishini asosida rivojlantirishga yo‘naltirilgan siyosat yuritiladi. Bu esa tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ularni tejash va biologik resurslarning qayta tiklanishini ta‘minlaydi.

Ma‘lumki, mamlakatimizda «yashil» iqtisodiyotga o‘tishda geografik joylashuv, iqlim o‘zgarishi hamda innovatsion yondashuvlardan kelib chiqqan holda yondashilmoqda. O‘zbekiston qayta tiklanadigan manbalardan energiya ishlab chiqarish bo‘yicha yuqori texnik salohiyatga ega ekanidan kelib chiqib, avvalo, iqtisodiyot tarmoqlarida quyosh, shamol, kichik suv oqimlari, geotermal va biomassa energiyasidan foydalanish hamda ushbu yo‘nalishlarga ilg‘or innovatsion texnologiyalarni joriy etishga alohida e‘tibor qaratish lozim.

Qayta tiklanuvchi va muqobil **energiya manbalari sohasida bozor mexanizmlarini tatbiq etish**, energiya resurslari bozorida xususiy sektor ishtirokini kengaytirish taklif etilmoqda. Bu orqali **aholining muttasil oshib borayotgan energiya ehtiyojini qondirish** mumkin bo‘ladi.

Dasturda iqtisodiyotning ko‘p resurs talab qiladigan energetika, qurilish, qishloq xo‘jaligi, transport kommunikatsiya tizimi va kommunal sohalarida energiya, resurs tejovchi va boshqa innovatsion ekologik hamda **raqamli texnologiyalarni keng joriy etishni qo‘llab-quvvatlash** ko‘zda tutilgan.

Ikkinchidan, mamlakatdagi asosiy ishlab chiqaruvchilar, ayniqsa, yirik korxonalar **yashil texnologiyalarga yo‘naltiriladi**.

Butun dunyoda, qolaversa, mamlakatimizda ham tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ularni tejash va biologik resurslarning qayta tiklanishini ta‘minlash tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Parij bitimi doirasida, O‘zbekiston 2030-yilgacha yalpi ichki mahsulot birligiga to‘g‘ri keladigan issiqxona gazlari tashlanishini 35 foizga kamaytirish majburiyatini yana bir bor tasdiqlaydi. 2026-yilga borib, «yashil» energiya ulushini 8 ming MVtgacha oshirish rejalashtirilgan, bu esa karbonat angidrid chiqindilarini 5 million tonnaga kamaytirish imkonini beradi.

Uchinchidan, O‘zbekiston investitsiyaviy jozibadorligini oshirish maqsadida «Yashil viza» (Green Visa) dasturini joriy etish taklifi ilgari surilgan. Bu orqali mamlakatimizga tabiiy resurslardan samarali foydalanish uchun kapital jalb qilinishi e‘tiborga loyiqdir.

To‘rtinchidan, tarmoqlar va hududlarning «yashil iqtisodiyotga o‘tish indeksi»ni ishlab chiqish taklifi ilgari suriladi.

Iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida hamda hududlarda imkoniyatlardan foydalanish darajasi-ga baho berish uchun ham «yashil iqtisodiyotga o‘tish indeksi» talab etiladi. Qolaversa, «yashil» iqtisodiyot mamlakatimiz kelajagi ekan, qaysi

tarmoq yoki hududning bunga tayyor ekani yoxud orqada qolayotgani yaqqol ko‘rinadi.

Oldimizda turgan asosiy masalalardan biri – bu **energetika tizimidagi muammolarning oldini olish** va ularni bartaraf etishdir. Hammamizga ma‘lum, aholini va iqtisodiyot tarmoqlarini uzluksiz energiya bilan ta‘minlash juda muhim masala. Shu boisdan ham nomzodning saylovoldi dasturida bunga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Nomzodning saylovoldi dasturida mamlakatda energiya barqarorligini ta‘minlashda xavfsiz va bezarar eng to‘g‘ri yo‘l sifatida **qayta tiklanuvchi energiyani** rivojlantirishga alohida urg‘u berilmoqda. Xususan, bu boradagi ishlarni imkon boricha tezroq va sifatliroq amalga oshirish orqali xalqimizni bugungi zamonaviy hayotda uchrayotgan elektr energiyasi tanqisligi muammasidan xalos qilishning muqobil va xavfsiz yo‘llari taklif etilyapti.

Birinchidan, qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirishga qaratilgan «Yashil energetika Strategiyasi»ni ishlab chiqishimiz zarur. Buning ahamiyatli jihati shundaki, mana shu orqali oldimizda turgan asosiy masalalardan biri – energetika tizimidagi muammolarning oldini olish va ularni bartaraf etish mumkin bo‘ladi.

Ikkinchidan, iqtisodiyotning ko‘p resurs talab qiladigan energetika, qurilish, qishloq xo‘jaligi, transport kommunikatsiya tizimi va kommunal sohalarida energiya, resurs tejovchi va boshqa innovatsion ekologik hamda raqamli texnologiyalarni keng joriy etish birinchi galda davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi kerak.

Bugungi global masalalardan yana biri **atmosfera havosiga chiqarilayotgan zaharli gazlar miqdorini kamaytirish va ekologik xavfsizlikni ta‘minlash** hisoblanadi. Zotan, «yashil» iqtisodiyotning asosiy talabi ham umumiy iqtisodiyotni tabiat va atrof-muhitga zarar keltirmasdan rivojlantirishdan iboratdir.

O‘zbekistonda 2022-yilda atmosferaga tashlanmalar miqdori **2,057 million tonnani** tashkil qilgan bo‘lsa, shundan **63 foizi** transport vositalari, **37 foizi** sanoat va mahalliy qurilish korxonalarini hissasiga to‘g‘ri keldi. Shuning uchun ham bugun hayotimizning ajralmas qismiga aylangan transport vositalari va ulardan chiqayotgan zaharli gazlar muammosiga yechim topishimiz shart.

Saylovoldi dasturida ushbu muammoga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Bu boradagi eng muhim tashabbus – **2030-yildan boshlab, mamlakatda ichki yonuv dvigatelli yengil avtomobillarni sotish, chetdan olib kirishni taqiqlash** taklif etilyapti. Shu bilan birga, atmosferani ifloslantirishda yuk tashuvchi yirik mashinalarning ulushi hisobga olinib, yuk tashish yirik yuk mashinalaridan temir yo‘llarga va atrof muhitga kamroq ta‘sir ko‘rsatadigan boshqa transport turlariga o‘zgartirishimiz zarur.

O‘zbekiston Ekologik partiyasining nomzodi tomonidan taklif etilayotgan har bir dasturiy yo‘nalish zamirida mamlakatimizni “yashil” tamoyillar asosida barqaror rivojlantirish, sof va toza atrof-muhit yaratish, inson va tabiat uchun birdek xavfsiz hayot bunyod etish kabi ezgu maqsadlar yotadi.

Xalqimizni, ekologiyaga befarq bo‘lmagan barcha fuqarolarimizni dasturimizda belgilangan ustuvor vazifalarni amalga oshirishda, atrof-muhitni muhofaza qilish va bebaho tabiiy boyliklarini asrab-avaylashdek muhim maqsadlarga erishishda birgalikda faol ishtirok etishga chaqiramiz.

Ona tabiatimizni asrash masalasiga befarq bo‘lmang!

O‘zbekiston Ekologik partiyasidan ko‘rsatilgan nomzod Abdushukur Hamzayevga ovoz bering!

**Xayrullo GAPPOROV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikeri
o‘rinbosari, O‘zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi raisi.**

O‘zbekiston Ekologik partiyasidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentligiga ko‘rsatilgan nomzod Abdushukur Xudoyqulovich Hamzayev saylovoldi dasturidan:

«Biz ekologik barqaror rivojlanishga yo‘naltirilgan «yashil» siyosatni hayotga tatbiq etish g‘oyasini ilgari suramiz.

Bu maqsadga erishish uchun quyidagilarni ustuvor vazifa sifatida belgilaymiz: iqtisodiyotning barcha sohalarini «yashil» iqtisodiyot tamoyillari asosida rivojlantirishga yo‘naltirilgan siyosat yuritiladi. Bu esa tabiiy resurslardan samarali foydalanishga kapital jalb qilindi;

mamlakatdagi asosiy ishlab chiqaruvchilar, ayniqsa, yirik korxonalar yashil texnologiyalarga yo‘naltiriladi; Vatanimiz investitsiyaviy jozibadorligini oshirish maqsadida «Yashil viza» (Green Visa) dasturini joriy etish orqali yurtimizga tabiiy resurslardan samarali foydalanishga kapital jalb qilindi; iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarda yashil iqtisodiyotga o‘tilganlik holatiga baho berishni nazarda tutuvchi tarmoqlar va hududlarning «yashil iqtisodiyotga o‘tish indeksi» ishlab chiqiladi.

Bola edim, ammo kechagidek esimda. Qishlog'imizga muxbir keldi. Foto-apparati ham bor edi. Dugonaning bobosini suratga tushirdi. Yondaftarchasiga bir nimalarni yozib oldi. Mahallamizdagi kattalar uning atrofida parvona bo'ldi. Shundan bildikki, u kishi obro'li odam edi.

"USTOZIM - "ZARAFSHON"

Dugonam maqtandi:
- Biznikiga jurnalist keldi. Bobomni gazetaga chiqarar ekan.

O'sha paytda muxbir amakining biznikiga ham kirib, mehmon bo'lib ketishini chin dildan istagan edim. Ammo mening bobom ham, momom ham yo'q edi.

- Bilasanmi? - dedim alam qilayotganini dugonamga sezdirmaslik uchun. - Katta bo'lsam, jurnalist bo'laman. Shunda gazetaga qishlog'imizning odamlarini tez-tez chiqarib turaman.

Dugonaning bobosi haqidagi maqola suratini bilan tuman gazetasi "Istiqbol sari"da chop etilibdi. O'sha maqolani qayta-qayta o'qib, deyarli yodlab olgandim.

Shundan keyin uy ishlaridan charchasam ham, nimadandir jahlim chiqsa ham qo'limga gazeta olib, o'qishni odat qilganman. Bu menga zavq bag'ishlardi.

Oradan yillar o'tib, maktabni bitirib, oliy o'quv yurtiga kirolmadim. Samarqand shahridagi pedagogika kollejida o'qidim, xolos. Keyin qishloqqa qaytib, maktabda yoshlar yetakchisi vazifasida ishladim. Yillar davomida oliy ma'lumotli bo'lish uchun harakat qildim, ammo urinishlar besamar bo'laverdi...

Taqdirga tan berdim, lekin jurnalistikaga bo'lgan ishtiyog so'nmadi. Tuman gazetasi qoldirmasdan, viloyat va respublika gazetalarini esa onda-sonda o'qib turardim. Maktabda tadbir bo'lsa, albatta u haqda xabar yozib, "Istiqbol sari" tahririyatiga yuboardim. Yozganlarimning ayrimlari chop etilib turardi.

Bir kuni she'rlarim va qishlog'imiz hayoti haqida yozgan qoralamarimni ko'tarib, tuman markaziga, tahririyatga bordim.

Muharrir, rahmatli ustozim Boltaboy Mamarasulov meni iliq kutib oldi. U kishi bilan birinchi marta uchrashishim edi. O'zimni tanishtirdim.

- Dilnoz, qizim, seni bilanman - dedi u kishi. - Tahririyatimizga yuborgan xatlarini hech birini qoldirmasdan o'qiganman, ularning aksariyati gazetada chop etilgan. To'g'ri, hali ko'p o'rganish kerak. Agar istasang, bizda kotibalik ish o'rni bo'sh. Shu yerda ishlab tursang, yozishni puxta o'rganasan, kelajakda institutda ham o'qish imkoniyati tug'ilardi.

Bu taklifni xursandchilik bilan qabul qildim. Oddiy kochi, keyinchalik ish yurituvchi bo'lib ishladim. Asosiysi, tahririyat xodimi bo'ldim. Shuningdek, yana bir ushlar, fotomuxbir Abdulhakim Zoirov bilan ham bir jamoada ishlab baxtiga muayassar bo'ldim (rahmatli Abdulhakim aka dugonaning bobosini gazetaga chiqargan muxbir amaki edi).

Ustozlardan maslahat olib, qalamimni charxlab bordim. Ammo baribir yozganlarimdan ko'nglim to'lmasdi. Bir kuni Boltaboy Mamarasulov yosh ijodkorlar bilan uchrashdi. Unda men ham qatnashdim. Bir o'quvchi u kishiga "Jurnalistika bo'yicha sizga eng ko'p o'rgatgan ustozingiz kim?", deb savol berganida, u kishi kulib qo'ydi-da, "Mening ustozim - "Zarafshon", dedi va qancha ko'p gazeta va kitob o'qisak, shuncha yaxshi yoza olishimiz mumkinligini uqtirdi.

Shu kundan boshlab "Zarafshon" gazetasi doimiy muharririga aylandim. Bir kuni tuman o'tgan tadbiridan xabar tayyorladim. Gazetamizning navbatdagi soni 3-4 kundan keyin chop etilishi kerak edi. Shuning uchun hali vaqt bor, qayta ishlayman deb, ustoz-

ga ko'rsatishga shoshilmadim. Ertasi kuni xuddi shu tadbir haqida "Zarafshon"da Dilmurod To'xtayevning xabarini o'qib qoldim. Avvalo, tezkorlikka qoyil qoldim. Keyin o'zimga yozganim bilan solishtirib ko'rdim. Albatta, farqi juda katta edi. "Zarafshon"dan ko'p narsa o'rganish mumkinligiga amin bo'ldim. Ayniqsa, bu gazetaning "Mulohaza uchun mavzu" rukni ostida chop etiladigan maqolalarim menga juda yoqardi. O'zim ham shu ruknga mos nimadir yozsam, albatta, "Zarafshon"ga yuboardim. Ahmadiyahlisi, hech bir xatim e'tibordan chetda qolmagan. Yozganlarim to'liq gazetada chop etilmagan bo'lsa-da, "Qisqa satrlarda" degan ruknda xatlarimdan parcha o'qirdim. Bu menga zavq va ilhom bag'ishlardi.

Keyinchalik, ko'pgina maqolalarim to'liq chop etildi ham. Avvalo, "Zarafshon"da, keyin "Istiqbol sari"da chop etilgan "Vatan rasmi yurakka chiziladi", "Qizlar jamalak taqmay qo'ydi" kabi maqolalarim bilan 2021-yilda "Yilning eng faol jurnalisti" viloyat tanlovida qatnashib g'olib bo'lganman.

Keyingi yillarda gazeta sayti Zarnews.uz va uning ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari ham o'z o'rniga ega bo'ldi. Aynan shu saytda va gazetada "Qo'shrabot "madaniyat" i qachon rivojlanadi?" sarlavhali tanqidiy maqolam e'lon qilingandan keyin tuman madaniyat bo'limidagi muammolar mutasaddilar e'tiboriga tushib, ko'pgina kamchiliklar bartaraf etildi. Shunda tahririyatning oddiy xodimi bo'lsam ham o'zimni jurnalistdek his qilganman.

Xullas, "Zarafshon"dan minnatdorman.

Dilnoza HASANOVA.

Har bir ijodiy topshiriq — o'ziga xos imtihon

Samarqand viloyat teleradiokompaniyasi maxsus muxbiri Nozigul Rustamova yangi loyiha asosida tayyorlagan "Yakshanba mehmoni" ko'rsatuvini tomoshabinlarga manzur bo'lmoqda. 2015-yilda ijodiy jamoamizga tortinibgina kelib yuradigan qizchadagi intilish va ijodkorlik uni jurnalist sifatida elga tanitdi.

- Bu dargohga dastlab ayam bilan kelganmiz, - deya eslaydi Nozigul o'sha davrni. - Gazetalarda maqolalarim, she'rlarim bilan chiqish qilib turardim. Radioboshlovchilikka qiziqish esa bolalikkandan boshlangan. Dadamning aytilishicha, chaqaloqligimda beshigim tepasida kichik radiocha bo'larkan. Shuni eshitib uxlab qolarkanman. Keyinchalik o'quvchilik damlarimda ham darslarimni qilib, tonggi 3-4 largacha radio eshitib chiqardim. Radioviktorinalarda qatnashardim. Ota-onam Samarqandda ham radio borligi bois o'zlarini iste'dodimni qo'llab-quvvatlab ruxsat berishgan.

Nozigul dastlab viloyat radiosida jamoatchi suxandon sifatida "Xabarlar" informatsion dasturida boshlovchilik qildi.

- Kompyuterga ustozlarimning ko'rsatuv va lavhalarini matnlarini yozardim. O'sha jarayon qalamimning charxlanishida yaxshi maktab vazifasini o'tadi.

Keyin qariyb 5 yil davomida xatlar bo'limida ishladim. Bu ham menga



yaxshi maktab bo'ldi. Ish yuritishni ham yaxshi o'zlashtirdim. Menga ishonib, yaxshi loyihalarni berishardi. Bu jarayonda markaziy kanalarga ham hududiy telekanallarning ko'rsatuvlari uzatilishi yo'lga qo'yila boshladi. "Diyor" kanalida dastlab lavham "stendap" bilan uzatilgan bo'lsa, keyinchalik "O'zbekiston-24" telekanaliga Samarqanddan uzatilgan informatsion dasturning boshlovchisi sifatida chiqqa boshladim.

Bugun "O'zbekiston-24" telekanaliga uzatilayotgan materiallarim, to'g'ridan-to'g'ri qilayotgan chiqishlarim uchun Lutfulla Shomurovdan minnatdorman.

Avivest qurilmasining hududiy telekanallarga berilishi esa to'g'ridan-to'g'ri joylardan, qaynoq nuqtalardan xabarlar uzatish imkonini berdi. Birinchi marta efirga to'g'ridan-to'g'ri chiqqanimiz esimdan chiqmaydi. O'zbekiston Respublikasi-ning Davlat bayrog'i qabul qilingan kun munosabati bilan Registon maydonida o'tkazilayotgan tadbirida bu ishni amalga oshirgandik.

- Ovozim haqida iliq fikr eshit-sam, kimdir mana shu matnini o'qib bering, deb izlab kelsa, xursand bo'laman, - deydi Nozigul. - Vaqtim bo'lsa, iloji boricha o'qib berishga harakat qilaman. Avvallari odamlar faqat ovozimni tanishardi. Endi efir orqali taniganlar borligi ham xursand qiladi. Teletomoshabin oldiga albatta, tayyorlarlik bilan chiqish kerak, deb hisoblayman. Ko'rsatuvlarimning chiroyli chiqishida yaqindan yordam beradigan texnik xodimlardan ham minnatdorman. Har doim ustozlar va ota-onam duosini olishga harakat qilaman.

Abdurasul ASHUROV.



"YANGI NAFAS"da yangi nomlar aniqlandi

Yurtimiz bo'yab "Bir Vatanda, bir vaqtda, bir masofaga, bir maqsadda - birga yuguramiz" shiori ostida "Yangi nafas" ommaviy yugurish musobaqasi o'tkazildi. Musobaqada 7 mingga yaqin samarqandlik sportga havasmand yoshlar ham faol qatnashdi.

Musobaqaning ochilish marosimida viloyat hokimining o'rinbosarlari R.Qobilov va X.Ochilov ishtirok etib, barchaga omad tiladi.

"Buyuk ipak yo'li" xalqaro turizm markazida yoshlar kuni munosabati bilan o'tkazilgan ushbu ommaviy yugurish musobaqasida ishtirokchilar 3 kilometr masofada o'zaro bahslashdi.

Xalqaro olimpiya kuniga bag'ishlangan "Olympic day" musobaqasida esa ishtirokchilar 1,61 kilometr masofaga yugurdi. "Yangi nafas" musobaqasida Past Darg'om tumanidagi 1-sport maktabi tarbiyalanuvchisi Alisher Ahmatilayev 1-o'rinni qo'lga kiritdi. Qizlar bahsida g'oliblik Samarqand davlat universiteti talabasi Kamola Ablayeva nasib etdi.

"Olympic day" musobaqasida belgilangan masofani birinchi bo'lib TATU Samarqand filiali talabasi Alisher Safarov bosib o'tdi. Ushbu masofada qizlar o'rtasida birinchi o'rinni pastdarg'omlik Farangiz Alimova qo'lga kiritdi.

Musobaqalarda nogironligi bo'lgan fuqarolar o'rtasida ham g'olib va sovrindorlar aniqlandi. Shuningdek, "Eng keksa ishtirokchi", "Eng yoshi ishtirokchi", "Eng faol ishtirokchi" nominatsiyalari bo'yicha g'oliblar taqdirlandi.

Buni chuqur anglagan davlatimiz rahbari fizika fanining ahamiyati haqida to'xtalar ekan, "Dunyodagi deyarli barcha kashfiyot va texnologiyalarni yaratishda fizika fani fundamental asos bo'lganini ko'ramiz. Haqiqatda ham fizika fani qonuniyatlarini chuqur egallamasdan turib, mashinasozlik, elektrotexnika, IT, suv va energetika tejaydigan texnologiyalar kabi bugun zamon talab qilayotgan sohalarida natijaga erishib bo'lmaydi", deydi.

Tibbiyot sohasida fizika fanining o'rni beqiyosligi hisobga olinib, Samarqandda tibbiyot oliygohi tashkil etilgan ilk yildan boshlab "Fizika, biofizika va tibbiy fizika" kafedrasi faoliyati yo'lga qo'yilgan. Bugun kafedraning o'nta o'quv xonasi hamda mas'rualar zali kapital ta'mirlandi. Ammo talabalar uchun o'quv laboratoriyasi mavjud emasligi, o'quv rejasida bo'lishiga qaramasdan, xonalar zarur jihozlar bilan ta'minlanmaganligi faoliyatimizda birmuncha qiyinchiliklar tug'dirmoqda.

Keyingi uch yilda kafedraning ilmiy salohiyati 40 foizdan 60 foizga o'sdi. Ilmiy izlanishlar uchun keng imkoniyatlar yaratilgan bo'lsa, kafedramiz yosh tadqiqotchilari tomonidan zamonaviy tibbiy diagnostikada IT texnologiyadan foydalanish, onkologik kasalliklarni davolashda ionlashtiruvchi nurlanishlardan foydalanish, lazer nurlanishining organizmdagi almashinuv jarayonlari, tabiiy chidamilligini, qazib olinayotgan neft va gaz tarkibini zararli aralashmalardan tozalash, yadro texnologiyalarini o'qitish metodikasini takomillashtirish kabi mavzularda tadqiqotlar olib borilmoqda.

**Naim SODIQOV,
Samarqand davlat tibbiyot universitetining fizika, biofizika va tibbiy fizika kafedrasi dotsenti.**

Sport mutaxassislarini tayyorlashda xorij tajribasidan foydalaniladi

Samarqand shahridagi oliy sport mahorat instituti-da "Globalashuv jarayonida jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimida dolzarb muammo va yechimlar" mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman bo'lib o'tdi.



Tadbirning ochilish marosimida Yoshlar siyosati va sport vazirining o'rinbosari Durdonah Rahimova, viloyat hokimining o'rinbosari Xurshid Ochilov, jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti rektori, professor Ilhomjon Tursunaliyev jismontarbiya va sport sohasida kadrlarni tayyorlash, malakasini oshirish va qayta tayyorlash tizimida amalga oshirilayotgan ishlar haqida so'z yuritdi.

20 nafarga yaqin xorijlik va 150 nafardan ziyod mahalliy oliy ta'lim muassasalaridan professor-o'qituvchilar, murabbiy va mutaxassislar ishtirok etgan tadbirida mutaxassislarini qayta tayyorlash, ularning malakasini oshirish tizimini boshqarishning innovatsion va pedagogik texnologiyalari muhokama etildi.

- Yurtimizda jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarini tayyorlashda amaliy ishlar boshlab yuborilgan, - deydi jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti ilmiy ishlar va xalqaro aloqalar bo'yicha prorektori Zokir Rasulov. - Jumladan, davlatimiz rahbarining 2022-yil 6-iyundagi "Oliy sport mahorati instituti faoliyatini tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga ko'ra, mamlakatimizda oliy sport mahorati instituti faoliyati yo'lga qo'yildi. Samarqand shahrida joylashgan mazkur institut professional ta'lim tizimini tamomlagan bitiruvchilar uchun o'qish davomiyliyi uch yil bo'lgan

davlat oliy ta'lim muassasasi hisoblanadi. Institutda ta'lim faoliyati 2023-2024-o'quv yilidan boshlanib, jismoniy tarbiya va sport sohasida oliy ma'lumotli yuqori malakali kadrlar tayyorlanadi. Mazkur anjumaning Samarqand shahridagi ushbu institutda o'tkazilayotgan ham bejiz emas. Tadbirida Buyuk Britaniya, Braziliya, Xitoy va Iroq mamlakatlari mutaxassislari tajribasi muhokama qilinib, aholini ommaviy sportga jalb qilish masalalari va o'quv dasturlarida malakali kadrlar tayyorlash metodikalaridan foydalanishga kelishib olindi.

- O'zbekistonda asosan sportga yosh avlod vakillari qiziqadi, - deydi fransiyalik Darius Riazi. - Uch yildan buyon Samarqanddagi "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universitetida sport tarixidan dars berish jarayonida bunga amin bo'ldim. Shu bois yurtin-gizdan yoshlar olimpiya o'yinlarida ko'p qatnashadi. Anjumandam ham masala alohida qayd etib o'tildi va bu borada sizlarning tajribangiz bilan o'rtoqlashdik. Shuningdek, sport sotsiologiyasi, falsafasi, tarixi haqida fikrlashib, kadrlar tayyorlash va ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish borasida tajriba almashdik.

Anjuman davomida ishtirokchilar tomonidan globalashuv jarayonida kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash tizimida jismoniy tarbiyaning dolzarb muammolariga bag'ishlangan ma'ruzalar o'qilib, tajriba sifatida master-klasslar o'tkazildi.

Nilufar XO'JANAZAROVA.

Fizika tibbiyotchilar uchun ham muhim fan

Bugungi tibbiyot bevosita fizika, texnika va tibbiy asbobsozlik nuqtai nazaridan rivojlanib boryapti. Shuning uchun ham mamlakatimizning barcha tibbiy oliy ta'lim muassasalarida talabalar kasalliklarning tabiati va sog'ayish mexanizmi biofizik tushunchalar asosida o'rgatiladi. Talabalikning 1-bosqichidanoq ularga tibbiy va biologik fizika kursi orqali fizika, texnik, biologik fizika va matematikadan umumiy holda maxsus bilimlar beriladi. Ushbu fanlarning asosi fizika bo'lib, u tibbiy-biologik masalalarni hal qilishda yordam beradi.

Fizika fanining tibbiyot bilan bog'liqligi yuzasidan shuni aytish lozimki, fizik bilimlarning, usullarning va apparatlarining tibbiyotda qo'llanilishi turli yo'nalishlarda bo'ladi. Misol uchun, inson organizmidagi qon aylanishining o'ziyoq murakkab fizik jarayon. Bu odam vujudida suyuqlikning oqishi, tomir bo'yab elastik tebranishlarning tarqalishi, yurakning mexanik harakatlanishi va hokazolalar bilan bog'liq. Bulardan tashqari, nafas olish, tananing issiqlik uzatishi, organizmdagi bug'lanish ham fizika.

Yana, organizmda tabiatdagi kabi molekulyar jarayonlar ham sodir bo'ladiki, ular biologik sistemalarning holatini belgilaydi. Mazkur jarayonlar haqidagi bilimga ega bo'lgan, fizik xususiyatlarni anglagan tibbiyot xodimi insonlardagi kasalliklarning tabiatini tushunadi, dorilarning ta'sirini to'g'ri baholay oladi. Albatta, tibbiy masalalarda fizikaning biologiya bilan bog'langan holatlarini ham unutmash kerak. Bu ikki fan biofizikani vujudga keltiradi. Biofizika - tirik organizmdagi fizik va fizikaviy-kimyoviy jarayonlar, biologik sistema-

larning ultrastrukturasi tashkil qilishining barcha jabhalarini o'rganadi.

Shuningdek, ko'pgina zamonaviy tibbiy uskunalar tuzilishiga muvofiq fizik asboblarga sira-siga kiradi. Birgina misol, ishlashi simobning issiqlik ta'siridan kengayishiga asoslangan meditsina termometri necha yildirki, keng tarqalgan diagnostik asbob hisoblanadi.

Umuman, keyingi yillarda turli elektron vositalarning rivojlanishi natijasida tirik organizmda hosil bo'layotgan biopotensiallarni aniqlash, yurak faoliyatini aks ettiruvchi mikroskopik qurilmalar, spektral analiz olishning texnik usullari, rentgenologik diagnostika kabi fizik omillar sohaga kirib kelyapti.

Tirik organizm atrof-muhit bilan o'zaro ta'sirlashgan holdagina yashashi mumkin ekan, mazkur muhitning harorat, namlik, havo bosimi va shu kabi fizik xarakteristikalarining o'zgarishlaridan keskin ta'sirlanadi. Shu bois fizik hodisalar va qonuniyatlarni o'rganish bo'lajak vrachlarning shakllanishiga yordam beradi.

Yil davomida maktabda asablari charchagan muallimlar yozgi ta'tilda maroqli dam olishi kerak. Ammo bunga hamma o'qituvchi ham vaqt va imkon topolmaydi. Xo'sh, bugun viloyatimizdagi maktab o'qituvchilarining qanchasi dam olish sihatgohlarida hordiq chiqaryapti? Ularga sanatoriylarga bepul yo'llanma beriladimi? Ushbu savollarga tegishli soha xodimlaridan javob so'radik.

Yozgi ta'tilda o'qituvchilar sanatoriylarda dam oladimi?

Xalq ta'limi vazirligi va O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashi Rayosatining 2020-yil 14-dekabrda "Xalq ta'limi tizimidagi muassasalarda mehnat qilayotgan xodimlarni sanatoriylarda sog'lomlashtirish ishlarini tashkil etish ishlarini to'g'risida"gi qo'shma qaroriga asosan, ta'lim tizimidagi pedagoglarni sanatoriylarda sog'lomlashtirish uchun bepul yo'llanma beriladi, - dedi viloyat maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlang'ich kasaba uyushmasi qo'mitasi raisi Jamshid Suvonov. - Ushbu yo'llanma orqali pedagoglar res-

publikamizdagi "Ibn Sino", "Sitorai Mohi Xosa", "Yangiyer", "Ko'hinur" sanatoriylaridan birida dam olish imkoniga ega bo'ladi. Yil davomida viloyatimizga 186 ta bepul yo'llanma ajratilgan. Shundan iyun-iyul oylarida 53 nafardan, avgust oyida 54 nafar o'qituvchi sanatoriylarga yuboriladi. Qolgan oylarda esa 3-4 nafardan pedagog dam olib kelmoqda. Sanatoriylarga bepul yo'llanma milliy reyting bo'yicha tuman (shahar)da yuqori beshtalikda turuvchi maktab o'qituvchilariga beriladi.

Shuningdek, pedagoglar xohishiga ko'ra, kasaba uyushmalari tomonidan ikki yilda bir marta dam olish sihatgohlariga yo'llanma beriladi.

O'zbekiston ta'lim va fan xodimlari kasaba uyushmasi respublika kengashining Samarqand viloyati bo'limi tomonidan berilgan ma'lumotga ko'ra, 2022-yilda viloyatda 2608 nafar pedagog sanatoriylarga yuborilgan. Joriy yilning 1-iyun holatiga 756 nafar pedagogga sanatoriylarga yo'llanma berilgan, shundan 729 nafari 45 foizli imtiyozli yo'llanma asosida sog'lomlashtirilgan. Shuningdek, "Ustoz" hamda xususiy sanatoriylar va profilaktoriyalarda 4109 nafar o'qituvchi sog'lomlashtirilgan.

Viloyatda umumiy o'rta ta'lim maktablarida ishlayotgan o'qituvchilar soni 60 mingdan ortiq bo'lsa, yuqoridagi raqamlardan juda kam sonli pedagoglar sog'lomlashtirish sihatgohlarida dam olishini bilish mumkin. "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da ta'lim sohasi xodimlarining dam olishini to'g'ri va samarali tashkil etish soha rahbarlarini o'ylantirishi kerak. Aks holda, o'qituvchi yangi o'quv yilida bolalarga qanday sifatli ta'lim bera oladi?

Xurshida ERNAZAROVA.



RAQOBATGA YO'L YO'Q

So'nggi vaqtlarda mahsulot sifati hamda standart talablarga javob berishi bilan nom qozongan brend va logotiplarning boshqa korxonaga va tashkilotlarning tomonidan "o'g'irlanishi" holatlari ham kuza-tilmoqda. Bu esa raqobatning nohalol bo'lishiga, iste'molchilar o'rtasida o'sha brend mahsulotlariga ishonchsizlikning shakllanishiga olib keladi.

"Raqobat to'g'risida"gi Qonunning 4-moddasiga asosan, insofsiz raqobat xo'jalik yurituvchi subyekt yoki shaxslar guruhining iqtisodiy faoliyatini amalga oshirishda afzalliklarga ega bo'lishga qaratilgan, qonun hujjatlariga, ish muomalasi odatlariga zid bo'lgan hamda boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlarga (raqobatchilarga) zarar, ishchanlik obro'siga putur yetkazadigan yoki zarar yetkazishi yoritishda, ayniqsa, keskin va murosasiz vaziyatlarda OAVning o'rni va roli muhim ekanligi alohida ta'kidlandi. Shuningdek, seminar-trening tashkilotchilari, tegishli soha mutasaddilari Samarqand viloyat televideniya borib, mavzuga doir suhbat asosida "Tok shou" suratga olindi.

Trening davomida ekstrimizm va terrorizmning kelib chiqishi, salbiy oqibatlarini, uning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan o'zaro suhbat tashkil etilib, fikr almashildi.

Jasurbek SHUKUROV.

savdosi bo'yicha yo'llagan murojaati o'rganib chiqilganda, unda "KIT KAT" tovar belgisi "Societe des Produits Nestle S.A." kompaniyasiga tegishli ekanligi qayd etilgan. Ammo Samarqand shahrida joylashgan tadbirkorlik subyekt o'sha tovar belgisiga o'xshash "KIT KIT" tovar belgisi muzqaymoq ishlab chiqarib, sotgan va insofsiz raqobatga yo'l qo'ygan.

Viloyatdagi "ayrim" tadbirkorlik subyektlari tomonidan "ROTBAND" tovar belgisiga o'xshash bo'lgan "ROTBANT", "NUTS" tovar belgisiga o'xshash "NATSS" tovar belgisidan foydalanish holatlari aniqlanib, amalga oshirilgan ishlar natijasida qonunbuzilish holatlari bartaraf etilgan.

Bundan tashqari, hududiy boshqarma tomonidan olib borilgan ishlar natijasida firma nomlarida "AKFA" so'zidan foydalangan 54 ta korxonaning, "ARTEL" so'zidan foydalangan 5 ta korxonaning firma nomlarini o'zgartirish choralar ko'rdi.

Hududiy boshqarmaga tushgan murojaatlarni o'rganish natijasi bo'yicha qonunbuzilish holatlariga yo'l qo'ygan korxonalariga qonunbuzilish holatini to'xtatish va kelgusida yo'l qo'ymaslik to'g'risida ko'rsatmalar berilib, tovar belgisi egasining intellektual mulk huquqlarining himoya qilinishi ta'minlandi.

Azamat HAMROQULOV, Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish hududiy boshqarmasi bo'lim boshlig'i o'rinbosari.

"SHAYTON TO'RI"

DOIM NAMOYISH ETILISHI KERAK

Narkotik moddani birinchi marta totib ko'rgandayoq odam o'z hayotiga nuqta qo'yishi mumkin, deyishadi mutaxassislar. Barcha narsaning birinchisi qiyin. Birinchi marta yolg'on gapirayotgan odam sal qiynaladi, birinchi marta spirtli ichimlik ichayotgan kishi ham og'rinadi, birinchi marta narkotik qabul qilgan yigit yoki qiz uchun ham og'ir bo'ladi. Ammo birinchisiga qo'l urdimi, uni narkomaniyadan qutqarib qolish qiyin kechadi. Shuning uchun ota-onalar jigargo'shasi, jondan aziz farzandlariga doimo e'tiborda bo'lishlari zarur.



Giyohvand o'z ehtiyojini qondirish uchun hech narsadan qaytmaydi. Narkotik modda iste'mol qilganlar oilasida tug'ma nogiron, aqli zaif, nuqsonli bor bolalar dunyoga kelmoqda. Giyohvandlik jamiyatga nihoyatda katta ma'naviy va moddiy zarar yetkazadi.

Giyohvandlikka qarshi kurash bu faqat huquqni muhofaza qilish organlarining ishi emas, balki barchamizning eng dolzarb vazifalarimizdan biridir. Uning mudhish oqibatlarini ko'rsatuvchi "Qora ilon", "Shayton to'ri" kabi filmlarni barcha telekanallarda qayta-qayta namoyish qilish zarur. Bugungi kunda ayniqsa, bu filmlarni ta'lim muassasalari o'quvchilari-

iga namoyish etish zarur deb hisoblayman. Giyohvandlar davolanayotgan kasalxonalaridan hujjatli filmlar tayyorlanib, namoyish etilsa, ahamiyati katta bo'lardi.

Hayot shirin, uni mazmunli, maqsadli o'tkazib, ezgu ishlar qilib, tevarak-atrofimizdagi insonlar hurmatiga sazovor bo'lish har bir inson uchun katta baxt. Baxtimizni qo'ldan bermaylik!

G'ulom RAVSHANOV, Respublika ixtisoslashtirilgan narkologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi viloyat filiali shifokori. Dildora ERGASHEVA, Paxtachi tumani ko'p tarmoqli markaziy poliklinikasi narkologi.

Jamiyat uchun qanchalik xavfli? Bunday holatlar oqibatlarining oldini olish uchun nima qilish zarur? Bu borada OAV va jamoatchilik faollari oldida turgan vazifalar nimalardan iborat? Samarqand shahrida "Ziddiyatli vaziyatlarda sezgir jurnalistika jamiyatda radikalashuv va terrorizm xavfini kamaytirish vositasi sifatida" mavzusida o'tkazilgan seminar-treningda shu kabi savollarga javob izlandi.

RADIKALIZM, EKSTREMIZM VA TERRORIZM

O'zbekiston Jurnalistlarni qayta tayyorlash markazi tomonidan Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining granti asosida O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi viloyat bo'limi bilan hamkorlikda o'tkazilgan tadbirda filologiya fanlari doktori, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti media va kommunikatsiyalar fakulteti dotsenti Nargis Qosimova, "Qalb nuri" nodavlat-notijorat tashkiloti direktori Nodira Alimova, Samarqand viloyati prokuraturasi katta tergovchisi Bekzod Hasanov mavzuga doir bilim va tajribalari bilan o'rtoqlashdi.

Yigirma nafardan ortiq mahalliy omamaviy axborot vositalari, fuqarolik jamiyati vakillari va blogerlar jam bo'lgan seminar ikki kun davom etdi. Unda

yoshlarni yot g'oyalari ta'siridan asrash, ziddiyatli vaziyatlarining salbiy oqibatlarini, radikalizm, ekstremizm, terrorizm tushunchalarining mazmun-mohiyatini yoritishda, ayniqsa, keskin va murosasiz vaziyatlarda OAVning o'rni va roli muhim ekanligi alohida ta'kidlandi. Shuningdek, seminar-trening tashkilotchilari, tegishli soha mutasaddilari Samarqand viloyat televideniya borib, mavzuga doir suhbat asosida "Tok shou" suratga olindi.

Trening davomida ekstrimizm va terrorizmning kelib chiqishi, salbiy oqibatlarini, uning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan o'zaro suhbat tashkil etilib, fikr almashildi.

Jasurbek SHUKUROV.

TUT DARAXTINI KO'PAYTIRISH LOZIM

O'tgan asrning 80-yillarida pilla ham paxta singari qishloq xo'jaligida asosiy o'rin tutgan. Pilla yetishtirmagan xonadon yo'q edi. Har bir qishloqda katta-katta tutzorlar bo'lardi. Ko'pchilikning tomorqasida ham tut ko'chatlari ekilardi. Chunki 2-3 quti pilla urug'ini boqish uchun xo'jalikdan ajratilgan barg yetmay qolganida hamma o'z hovlisidagi tutlarni urib olardi.

Ammo yillar o'tib, pilla kamaygach, odamlarda tutlarga munosabat o'zgardi. Tutzorlar buzildi. Tut daraxtlari o'tin uchun kesildi.

Keyingi yillarda jahon bozorida pillaning narxi osha boshlagach, aholida ipak qurti boqishga qiziqish kuchaydi. Ammo barg yetishmayotgani sezilyapti.

Keyingi yillarda hududiy pilla korxonalarini tomonidan kichik tut plantasiyalari tashkil qilinmoqda. Ekilayotgan past bo'yli tut ko'chatlari navlari xorijdan keltirilayotgan ekan. Nazarimda qishloqlarimizda o'zimizning tut navlarini ekishni tashkil qilish kerak. Bitta yirik tut daraxtidan 15-20 bog' barg olish mumkin. Bu esa 2-3 quti urug'ning bir sutkalik ozig'i bo'ladi.

Turdi TURSUNOV, mehnat faxriysi.



REKLAMA, E'LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUHOJAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

DA'VOLAR BO'LSA...

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasida marhum Zaripov Kenjabek Fayziyevichga (2016-yil 4-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 73-uy.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mirzayeva Bar-no Jo'raqulovna notarsial idorasida marhum Ubaydullayev Eshkuvatga (2022-yil 28-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mirzayeva Bar-no Jo'raqulovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Zebuniso ko'chasi, 4-"A" uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Bahromova Feruza

Zoirova notarial idorasida marhum Axadov Fazil Vaxobovichga (2021-yil 29-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Bahromova Feruza Zoirova notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 108-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirova notarial idorasida marhum Burhonov Ergashga (2015-yil 15-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Aliyeva Lola Zoirova notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 80-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasida marhum Arslonov Mamur Arslonovichga (2021-yil 4-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Tursunov Suhrob

Berdiqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Beruniy ko'chasi, 200-uy, 3-xona.

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Shomurodov Anvar Salimovich notarial idorasida marhum Abdurasulov Majidga (2021-yil 9-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Shomurodov Anvar Salimovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand tumani O'rta shahri mahallasi.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Isoqulova Nigora Turdiqulovna notarial idorasida marhum Smolina Anna Ivanovna (2022-yil 12-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Isoqulova Nigora Turdiqulovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abu Rayhon Beruniy ko'chasi, 12-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Narzullayeva Lola Shukurullayevna notarial idorasida marhum Muradova Moxiraga (2016-yil 1-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Narzullayeva Lola Shukurullayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Nodirabegim ko'chasi, 5/1-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Narzullayeva Lola Shukurullayevna notarial idorasida marhum Musinova Xayriga (2022-yil 29-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Narzullayeva Lola Shukurullayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Nodirabegim ko'chasi, 5/1-uy.


BEKOR QILINADI

Payariq tumanidagi "MIRJALOL TURG'UN-OVLAR ZAMINI" fermer xo'jaligining (STIR:

307254288) dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Fuqarolar Valiyeva Fotima Baxritdinovna va Sirojev Farrux Orifonovichlar o'rtasida 2022-yil 9-noyabrda Samarqand shahri Xunarmandlar mahallasi, Bedil ko'chasi, 18-"A" uy, 38-xonadon uchun tuzilgan, Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Nurosimov Ramziddin Sayfidinovich tomonidan tasdiqlanib, 202201798004507 raqam bilan reestrda qayd qilingan oldi-sotdi shartnomasining sotib oluvchidagi nusxasi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Oqdaryo tumani "Moyqovoq" MFYda joylashgan "Oqdaryo Himolay Chorvadori" fermer xo'jaligiga qarashli mulk uchun O'zbekiston Respublikasi Xususiyashtirilgan korxonalariga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi Samarqand viloyati hududiy boshqarmasida 2017-yil 1-noyabrda ro'yxatga olingan 609-sonli oldi-sotdi shartnomasiga asosan 2018-yil 6-fevral kuni berilgan 46-sonli mulk huquqini tasdiqlovchi davlat orderining asl nusxasi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.



Ko'kaydagi gaplar

1968-yilning kuzi - salqinga tortgan kunlar. Fakultetimiz dekani Muhabbat Ahmadboyeva va o'rinbosari Abduxoliq Abdurahmonov "Akademiklar shaharchasi"ga borishimni uqtirib, uy va kvartira raqami yozilgan qog'ozchani berdi. Bu manzilda ancha kunlardan buyon darslarga qatnashmayotgan kursdoshimiz Ravshanning otasi, atoqli folklorshunos olim, professor Hodi Zaripov (1905-1972) istiqomat qilishini aytishdi.

Xonada keksa o'qituvchimiz Sharifa Abdullayeva ham bor edi. U kishi Hodi Zaripovning xasta ekanligini, shuning uchun o'g'li haqida fursati kelganida yotig'i bilan gap ochishim lozimligini uqtirdi.

Xullas, aytilgan manzilni adashmay topib bordim. Eshikni kubanka kiygan norg'ul bir yigit ochdi. Ravshan o'qiydigan guruh "starosta"si ekanligimni va dekanat yuborganini aytganidan keyin kirishga taklif qildi hamda ko'p o'tirib qolmasligimni tayinladi.

Domla to'shakda ekan, nazarini menga qarab, kimligimni so'radi. "Nizomiy"da o'g'li Ravshan bilan o'qishimni va dekanat tomonidan yuborilganimni aytdim.

Navbatdagi savollari qayerlik ekanligimdan bo'ldi. "Nurotadanman", deganimdan keyin chiroylari ochildi va kulimsirab:

- Baxshizodalardanman, deng, - dedilar.

Jonlanib ketdim, Safarqul bobom Avazsoyning old ertakchisi ekanligini, dostonlardan parchalar kuylashini, terma ham aytishlarini, otam uzun qish kechalari doston kitoblardan odamlarga o'qib berishini, o'zimdagi ham qiziqish borligini qishloqcha soddalik bilan aytdim.

Xusaand bo'lib, «Bobongizning qaysi ertaklarini bilasiz?» - dedi.

"Oq bilak bilan Turandoz", "Uch og'agini botirlar", "Kalning baxti", "Yodgorbek" va yana anchalarini sanadim.

- Bobom do'mbira bilan bir ertakni 2-3 tun aytardilar, - deb qo'shimcha qilsam, domla xastaliklarini unutilib, joylaridan turmoqqa harakatda bo'ldi. Meni kuzatib turgan kishi "gapingni kalta qil" ishorasini berdi. Ammo domla aksincha ishora qildi va bobomdan o'z tillarida biror narsa aytib berishimni so'radi.

Jon deb boshladim:
*Chambilbeldan ot qochirdim izi jo'q,
 Go'ro'g'lig'a chay pishirdim tuzi jo'q.
 Do'mbiram'ga quloq osing, og'ayin,
 Qo'sh torini dardi borda so'zi jo'q.
 Bu olamdi sinovi ko'p, yoronlar-ey,
 Go'ro'g'lini uli tugul qizi jo'q.
 Farzand bersin har bandaga Xudoyim,
 Safarquldi o'zga gavhar so'zi jo'q.*
 Yana biri:
*Ol-ho bo'sin, ol-ho bo'sin,
 Ol bo'sin.
 Saxiyarga qo'ra to'la mol bo'sin.
 Jigittardi duvo qing'iz, bovolar,
 O'nib-o'sib, bova bo'sin,
 Chol bo'sin...*

Shu yerga kelganimda To'ra aka yelkamga turtidi (keyinroq bilsam, bu kishi domlaning xos shogirdi, yetuk folklorshunos olim, akademik To'ra Mirzayev (1936-2020) ekan). "Turtki"dan keyin nazar solsam, domla ko'zimga biroz toliqqanday ko'rindi, ammo davom etdi:

- Nurotangiz muqaddas manzil. Baxshichilik tarixi juda uzoq. O'rgangan sari, izlangan sari yangidan-yangi qirralari ochilib boradi. Shuning uchun ham biz, folklorshunos olimlar Nurotaning Qo'rg'onini (*hozirda Qo'rg'on qishlog'i Qo'shrabot tumanida*) O'zbekistonning dostonchilik markazi va maktabi sifatida bilamiz. Ergash shoirning o'zi alohida bir dorilfunun. Yetti pushti ilmu hikmat bilan o'tgan. Shu maktabi shoxobchalarida unib o'sgan izdoshlari Fozil shoir, Po'likan shoirilarning har biri bir olam. Bunday diyor bilan faxrlanish va bobolar yo'lini davom ettirish mas'uliyatini unutmang. Zamon kelib, dunyo ularga nazar soladi.

Nurota sarhadlarida juda ko'p bo'lganman. Ko'pning nonini yeganman. Yurtin-gizga borganingizda barchalariga salomimni yetkazing. Aslida nima xizmatda kelgansiz?

O'g'illari sababidan kelganimni aytdim... Domla ancha jim turib qoldi.

Ketishga ijozat so'rab, asta o'rnimdan turgan. Ko'zlari bilan "xayr" ishorasini qildi...

Yo'l-yo'lakay Safarqul bobomdan eshitgan bir voqea yodimga tushdi. Uni takror-takror, yuzlar eshitganman-ov:

- Yoronlar, qadim ayyomlardan Qo'rg'onni yettipushti baxshi-shoirakan. Qizilqum cho'lidayim qozoqti so'zamoli ko'bakan. To'yu sayillarda kim o'zarg'a do'mbira chertib, dostonu terma aytib, basma-bas kim o'zar qilisharkan.

Bir ko'klam adog'ida qozoqti menman degich oqini bilagini shimirib, do'mbirasini jelkasiga osib, kimligimni ko'rsatay degan talabda, ko'z qo'rqitarg'a Qo'rg'onga keladi.

Qarasa, qishloq etagidagi buloq boshida besh-olti xotin-xalaj sapolu mis ko'zalarig'a suv to'ldirib, ayal guringda.

Qozoq baxshining xayoliga fikr o'rmlab, o'zicha shu zaipalardi bir savolminan tindiray. Qishloqqa kirib, gap tarqatsin, shunda ko'rmiz o'zbeki holi ne bo'lari-ni, deb ayallarga yuzlanib to'g'irlay boshlab, o'ng qo'lini mang'layida soyabon ushlab, shu so'zdi ayipti:

*Sendan savol so'rayman turgan zayip,
 O'si turga tovlaring nechi jasar?
 Xotin-xalajdi ichida Tilla kampirmi,
 Sulton kampirmi degich biri borakan.
 Qozoq baxshining niyatini payqab,
 chorsislini kip-tiga tashlab,
 lachagini to'g'irlay boshlab,
 o'ng qo'lini mang'layida soyabon ushlab,
 shu so'zdi ayipti:
 Xudoding ishini ko'r,
 Falaktig gardishin ko'r.
 Qaydan bilamiz joshini,
 O'vzin ochib tishin ko'r.*
 Bu javobtan qozoq baxshi javdirab, o'ng u so'liga o'n qarab, pechini chappa o'rab, bo'lari bo'p, shartta iziga qaytib ketganakan.

O'zbek xalq og'zaki ijodi asarlarining fidoyi to'plovchisi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, filologiya fanlari doktori, professor Hodi Zaripovdek olim bilan bo'lgan muhtasar suhbat o'z davrida bir inoyat bo'lgan ekanki, fursati yetib, xotira uyg'otdi.

Binobarin, Qo'rg'on va unga mansub dostonchilik maktabi bamisli obi-hayot, oqar daryo. Bahrasidan qanchalab buloqlar ko'z ochmadi, deysiz. Hechdan ko'ra kech deganlaridek, kuni kelib, oy to'lishadi va ezgu orzular barg yozib, gul ochib, meva beradi. Domla bilib aytganlar, bo'plab gapirganlar. Deganlari ijobat bo'lishidan hali umid uzilmagan.

O'tgan asrning yetmishinchi yillari oxirida Nurota raykomiga ilmu ma'rifatni qadrllovchi, ijodkorlarni e'zozlovchi inson Hojiqul Xudoyqulov rahbarlik qilgan.

Hojiqul akaning e'tibori bilan tuman ijodkorlari faxriysi va nuroniysi Ergash Asaboyev hamda jurnalist Rahim Qodirov Nurota dostonchiligining jirov (baxshi) larga mansub yo'nalishi borasida keng ko'lamli ishlarni amalga oshirdi.

Ular Nurotaning Qo'tir qishlog'ida yashab o'tgan jirov Bekmurod Jo'raboy

o'g'li ijodini chuqur o'rganish va xotirasini abadiylashtirish taklifi bilan Xudoyqulovga murojaat qiladi. Ularning taklifi ma'qullanib, bizning Chashma qishlog'idagi 10-maktab Bekmurod Jo'raboy o'g'li nomi bilan ataladigan bo'ladi. Bunda jirov qachonlardir Avazsoydagi kolxozlardan birining Nurotadagi saroyiga saroybon bo'lganligi hujjati rayon arxivida bor ekanligi asos uchun olindi.

Shu munosabat bilan o'tgan asrning saksoninchi yillari may oyi kunlaridan birida Toshkentdan folklorshunos olim, professor Malik Murodov, fantast-yozuvchi Hojiakbar Shayxov va jurnalist, folklorshunos Rahim Qodirov maktab o'quvchilariga jirov ijodi bo'yicha dars o'tishi haqida xabar keldi. Shomgacha kutdik, daraklari bo'lmagach, tarqalishdik. Ammo uyimgacha yetmay, "mehmonlar keldi, direktornikiga borar ekansiz", deya xabar berishdi.

Adabiyotdan, xususan, xalq og'zaki ijodidan jo'shqin suhbatlar davom etib, mehmonlar allamahalda ketmoqchi bo'lishdi. Rahim Qodirovning qistovi bilan men ham ularga qo'shildim. Maktabdan o'tib, qishloq etagidagi burilishga borganimizda Malik Murodov "O'quvchilar bo'lmasa ham maktabga tushib, Bekmurod Jo'raboy o'g'lining portretini ziyorat qilaylik", deb turib oldi.

Xullas, baxshi portreti qarshisida bir muddat suhbatda bo'lib, professor Malik Murodov yaqin kelajakda maktabda respublika darajasidagi folklor anjumanini o'tkazish ehtiyoji borligini aytdi. Ammo bu gaplar aytilgan joyida qolib ketdi. Maktab nomi ham qayta-qayta o'zgardim...

Bu o'tgan davrda qator mamlakatlarning baxshichilik maktabi, baxshilari maqtovdan, televizordan tushmadi. Ular siyu sifatning ham ko'pini ko'rdi. Biznikilar tutilgan tillarda qoldi. Bilganlar o'tib ketdi, aytganlar unutildi, keyingilari tilini yutib ketdi...

Yoshligimda u yer-bu yerda bobomning termalaridan aytib yurganim uchun ko'p daki eshitganman. Sababi, bobom aytgan doston parchalarida, ertaklarida, termalarida ateizm va ateistlar fikriga zid jihatlar ko'p edi.

Zamonasozlik avj olgan yillarda xalq og'zaki ijodi namunalariining asl mazmuni o'zgarishlarga uchradi, nashrlardagi talqini sho'ro siyosatiga moslashtirildi. Oqibatda baxshilarning yangi to'fasi shakllanib, "suv oqimi"ga mos ijobat qiluvchilar e'tiborda bo'ldi. Rahmatli Ergash Asaboyev mustaqillikdan keyin bu gaplarni ko'p takrorlar, ammo u "suvlar oqib ketganini" bilsa-da, yozganlaridan voz kecholmadi.

Nurota tumani "Nurnoma" (avvalgi nomi "Ilg'or chorvador") gazetasiga muharrirlik qilgan yillarda deyarli har hafta tahririyatga kelar, gapu maqsadini soatlab dostonu termaga ular, ertadan umidlana, mayliga quloq tutsangiz, Nurota chashmasi suvini dostonlari shuhratiga tenglar-di...

Nurota baxshisi o'z davrida baxt top-

gan el bo'lgani rost. Bir bo'lgan voqeani bir paytlari hikoya qilganman:

Avazsoyda Rajab bobodek duradgor kamdan-kam o'tgan. Baland darajalari hurmatidan hamisha ismiga "usta" qo'shib aytilgan - usta Rajab! Hatto yosh-yalanglar ham bu so'zni qo'shib ishlatishar, aytilmasa, go'yo boshqa odamni aytayotgandek tuyulgan.

U chin usta bo'lgan, bugungiday tayyor o'ris yog'ochda emas, gujumu tut, jyda, tolu terak ishlatgan. Haqiga biy, insofli va himmatli bo'lgan.

Oqtepalik usta G'aybullaning aytari-cha, "yog'och bilan, asbob bilan gaplashgan odam" bo'lgan. O'g'li Shodiboy ota darajasidan ham o'tdi: temirni ham yog'ochda ishlatib, pesh bo'ldi. Noni ham, nomi ham o'ziga buyursin...

Shu usta Rajab bobo soyga yetim holidan kelgan ekan. Bir burda nonini bolalikdan peshona teri bilan topibdi. Yillar o'tib, obro'-e'tiborga erishibdi.

Ertakka aylanib qolgan bir voqea el orasida ko'pdan-ko'p mashhur:

- Avazsoy azaldan uch qishloq. Tepada Ajrim, o'rtada Chashma, etakda Oqtepa. Vaqti zamonasida yeru sunning egalari beshravotlik To'raqul amin va ukalari bo'lishgan. Keyinchalik nabiralari Farmon, Mustay, Qodirga o'tgan. Ajrimning yeru mulki mulla Qodirniki ekan. Endi bu voqealarning boshi 1850-yillarga, so'ngi 1920-1925-yillarga to'g'ri kelgan.

Usta Rajab boboni mulla Qodir ikki yil ishlatgan. Ish hisob-kitobga yetib, usta mulladan haq talab qilgan. Boy ikki yillik haqini qora pulda hisoblab, 400 gramm juvoz (shira) yog'i bergan.

Chor-nochor juvoz moyini bir kadiga solib, Qoragazdan o'kinib, so'ylanib o'tib, Chashmaga kelsa, Tarnovda bir baxshi do'mbirasini sayratib, doston aytayotir. Usta davraga qo'shilib, bo'g'ini bo'shabdi. Ikki yillik mehnati haqini baxshiga hadya etib, norg'ul gavadasini tik tutgan-cha, mamnun chiqib ketibdi...

Shu soyda ustaman deb qo'lga tesha olgan har kim bo'lsa, usta Rajabning yoki shogirdning shogirdi.

So'fi Ollayor demishlarki:
*Karamlik bandasi gar bo'lsa cho'lda,
 Ichar suv bo'lmasa bir zarra qo'lda.
 Agar ko'z yoshicha suv tobsa anda,
 Qilur yarmini ehson yaxshi banda.*
 Ancha umidlar armonga aylandi. Nailoj, bir kam dunyo... Ergash ota Asaboyevning suygani va umidli shogirdi, ajrimlik Xushvaqt baxshi edi. O'zi ham odamni naqshisi edi. Shu Xushvaqt baxshi aytganlaridan bir tilim:

*Oq tog' Qora tog' orasi Orasoy,
 Orasoyning boshi elim Avazsoy.
 Tog'u toshi ko'zu qoshi misoli
 Jumardlarga mazgil makon Avazsoy.
 Azal abad qorako'ning vatani,
 Toshda ne'mat ko'kartirgan dehqoni.
 Yilgi bilan dupurlagan maydoni,
 Mardu maydon yurti azal Avazsoy.
 Elim tarixidan bayon aylayin,
 Yaxshilar nomini dilga joylayin,
 Bo'rttirmasdan bir-bir shayon aylayin,
 Turku turkman urug'idir Avazsoy.*

*Baxshilari nar kaklikday sayragan,
 Otchoparda Mirzo baxshi kuylagan,
 Ajrimda Rahmon baxshi bo'zlagan,
 Eli azal so'zga chechan Avazsoy.
 Usta Safarqulda ko'rmishlar xislat,
 Bir ertakka uch tun qilarkan xizmat.
 Termalari bo'larkan purhikmat,
 Taloshlarda eli g'olib Avazsoy.
 Chashmada o'zirdi mulla Ismoil,
 O'tkir ulfat Oqtepani yashnatdi,
 Baxshilarga vatan bo'lgan Avazsoy.
 Navbat yetib, Xushvaqni ham uyg'otdi,
 Ustozlarni ruhi turar madatda.
 Tinglaganlar yetsin maqsad - murodga,
 Qo'li ochiq, yo'li ochiq Avazsoy.*

Soyning donosi ham, mullasi ham ko'p bo'lgan. Azal-azaldan maraka movridi mo'l bo'lib, yig'inlari bebaxshi o'tmagan. Do'mbiralar qoziq ko'rmagan, xalqi zerikishdan xayol surmagan. Bir zo'r baxshisi Mirzo baxshi bo'lgan. Chertib aytganini, to'qib bitganini biz bajarolmadik, buning sababi ko'p.

Suyundik Mustafo NUROTAIY, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi.

Vatan qo'shigi

*Mustaqildir diyorum,
 Tinchlik mangu shiorim.
 Qalbdan qo'shiq - alyorim
 Yuz tutgan keng jahonga
 Yangi O'zbekistonga!*

*O'tganlarning ruhi shod,
 Ibratin etamiz yod,
 Bo'lmoqda bag'ri obod,
 Jannat kabi makonim,
 Yangi O'zbekistonim!*

*Mehnatkash keksa-yoshi,
 Kulgandir baxt quyoshi,
 Sarbon elning safdoshi,
 Shaxdam boradur karvon,
 Bu - Yangi O'zbekiston!*

*Musaffodir osmoni,
 Qo'riqlar mard posboni.
 Ushalmog'da armoni,
 Bunyodkor, usta dehqon,
 Bu-Yangi O'zbekiston!*

*Erkin va hur nafasda,
 Hamma borar bir safda,
 Jahon ahli havasda
 Tengsiz bog'u bo'stonga -
 Yangi O'zbekistonga!*

O'ZINGDAN SO'R

*Kun bo'yi gap sotmoqlik
 Bilimsiz nodon ishi.
 Ma'nisiz so'zlamagay
 Oqil va dono kishi.*

*Go'zallik, nafosatni
 Ul guli ra'nodan so'r.
 Farzand-chun bedorlikni
 Mehribon onadan so'r.*

*Nonning ulug'ligini
 Ushoqqa zor biladi.
 Vatan qadrini chetda
 Bo'lganlar xor biladi.*

*Kimga havas qilishni
 Aql ila ko'zingdan so'r.
 Loyiqmisan elingga,
 Avvalo, o'zingdan so'r.*

Parodiya

"Qorlar erib ketaveradi, Bog'lar ko'z yosh qilaveradi".

(Ashuladan)
*Raqqosa ishva qilaveradi,
 Cho'ntagingni shilaveradi,
 Cho'zsang, o'ynab-kulaveradi,
 Kimda pul bor bilaveradi.
 "Qorlar erib ketaveradi,
 Bog'lar ko'z yosh qilaveradi".
 Jo'n she'r qolib ketaveradi,
 Farrosh olib ketaveradi.*

"AHIL" JAMOA

*Guvoh bo'ling o'zingiz,
 Bu yerga kelib bir dam.
 Idoramizda rahbar -
 Boshliqdur mening otam.*

*Ishlarni yurituvchi
 Mehribonimam - oyim.
 Shu bois idorada
 Silliq ketar ish doim.*

*Akajonim - hisobchi,
 Bosh oshpaz - opajonim.
 Singilcham - kompyuterda,
 Haydovchi - qaqqajonim.*

*Quda bobom - qorovul,
 Quda xolamiz - farrosh.
 Bojamizning qizlari -
 Kotibadir qalamqosh.*

*Xullas, bizlar ahilmiz,
 Hech kim begona emas.
 Ishqilib, tashkilotni
 "O'tqazib" qo'yimasak bas.*

Nuriddin YAHOYEV, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi.

IYUN-IYUL OYIDA TAVALLUD TOPGANLAR

27-IYUN
Erkin XO'JAYEV - 1939-yilda Samarqand shahrida tug'ilgan. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan iqtisodchi. Professor.

1-IYUL
Avaz ERGASHEV - (1947-2018) Jomboy tumanida tug'ilgan. O'zbekiston Qahramoni.

3-IYUL
Nusrat RAHMAT - 1941-yilda Samarqand tumanida tug'ilgan. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist.

Gazetaning navbatdagi soni 2023-yil 1-iyul, shanba kuni chop etiladi.



MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 16 540 nusxada chop etildi. Buyurtma 352. Hajmi 4 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MChJ bosmaxonasida chop etildi.

Korxonalar manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da.

Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir:

A.SHERXOLOV.

Navbatchi:

T.SIDDIQOV.

Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



Sotuvda narxi kelishilgan holda